

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYA

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA
KORRUPSIYANING OLDINI OLISH
VA XODIMLARDA KORRUPSIYAGA
QARSHI XULQ-ATVORNI
SHAKLLANTIRISH

Ma’ruzalar kursi

TOSHKENT – 2018

M a s ‘ u l m u h a r r i r :
yuridik fanlar doktori **A.A.Otajonov**

T a q r i z c h i l a r :
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘lim boshlig‘i yuridik fanlar
nomzodi, dotsent **Sh.N.Berdiyorov**;
yuridik fanlar doktori, dotsent **O.A.Kamalov**

M u a l l i f l a r j a m o a s i :
Q.R.Abdurasulova, yuridik fanlar doktori, professor (1-mavzu –
B. A. Umirzakov bilan hammualliflikda);
A.G.Zakirova, yuridik fanlar doktori, professor (2-mavzu –
M.J.Eshnazarov bilan hammualliflikda);
R.N.Raxmanov (3-mavzu – *G. S. Karshiev bilan hammualliflikda, 5-mavzu –
B.A.Umirzakov bilan hammualliflikda*);
S.B.Xo‘jaqulov, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (4-mavzu –
M.J.Eshnazarov bilan hammualliflikda);
B.A.Umirzakov (1-mavzu – *Q.R.Abdurasulova bilan hammualliflikda, 5-mavzu –
R.N.Raxmanov bilan hammualliflikda*);
M.J.Eshnazarov (2-mavzu – *A.G.Zakirova bilan hammualliflikda, 4-mavzu –
S.B.Xo‘jaqulov bilan hammualliflikda, 7-mavzu – J.K.Sherjanov bilan hammualliflikda*);
Sh.M.Ubaydullaev (6-mavzu – *B.A.Umirzakov bilan hammualliflikda*);
J.K.Sherjanov (7-mavzu – *M.J.Eshnazarov bilan hammualliflikda*);
G.S.Karshiev (3-mavzu – *R.N.Raxmanov bilan hammualliflikda*)

I–34 **Ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish:** Ma‘ruzalar kursi / Q.R.Abdurasulova, A.G.Zakirova, B.A.Umirzakov va boshq.; Mas‘ul muharrir yuridik fanlar doktori A.A.Otajonov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 96 b.

Ma‘ruzalar kursida «korrupsiya» tushunchasi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish, korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari, ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish kabi masalalar yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursantlari, tinglovchilari va ichki ishlar organlari amaliyotchi xodimlariga, shuningdek, ushbu sohada ilmiy tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilarga mo‘ljallangan.

KBK 67.99(5U).9ya73

SO‘ZBOSHI

O‘zbekistonda yuksak darajada uyushgan, o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari mukammal qaror topgan fuqarolik jamiyatini shakllantirish oliy maqsad sifatida belgilangan. Unda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘zini o‘zi kamol toptirishiga yordam beradi, shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi. Bunday ezgu maqsadni amalga oshirish jamiyatda barqarorlikni saqlash, fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini asrash, odamlarning qonunlarga so‘zsiz rioya etishini ta‘minlashni hal qiluvchi vazifalardan biri sifatida qarashni ko‘zda tutadi.

Jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan illatlar ko‘p. Ulardan davlat va xalq uchun eng zararlisi – korrupsiyadir. Ushbu zararli hodisa katta va kichik, rivojlanmagan yoki rivojlanmaganidan qat‘i nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu illatga qarshi kurash birinchi navbatda oiladagi muhit va ta‘lim-tarbiyadan boshlanadi. Nima halolu, nima harom ekanligini farzandlarimizga bobo va momolar, ota-ona va ustozlar o‘giti bilan singdiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev: «Biz ta‘lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz» deganlarida farzandlarimizni bolaligidan pokni nopokdan, halolni haromdan farqlashga o‘rgatishni nazarda tutadi va yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning quyidagi fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlari lozimligini ta‘kidlaydi: «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e‘tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq».

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar davlat boshqaruvi, jamiyat taraqqiyoti va inson manfaatiga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi hodisa bo‘lib, bu nafaqat milliy, xalqaro xavfsizlikka ham jiddiy tahdid soluvchi real manbadir. So‘z yuritilayotgan illatning ichki ishlar organlarida kuzatilishi mavjud xavfni bir necha barobar oshishiga sabab bo‘ladi.

Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 201-yil 10-apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini

tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida keyingi yillarda ichki ishlar organlari faoliyatida to'planib qolgan jiddiy kamchilik va muammolar haqida so'z yuritib, «ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi hozirgi talablarga javob bermaydi, poraxo'rlik va xizmat mavqeini suiiste'mol qilish holatlari hamon uchrab turibdi» mazmunidagi tanqidiy fikrni bildirib o'tganlar.

Ushbu ma'ruzalar kursi Prezident Shavkat Mirziyoevning «Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda yanada takomillashtirish, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib kelayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish» borasida ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning ijrosini samarali ta'minlashga xizmat qiladi. Bu borada kursant va tinglovchilarga korrupsiya, uning ko'rinishlari, ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan sodir etilayotgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning ijtimoiy salbiy oqibatlari, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi haqida ma'lumotlar berib, ularda korrupsiyaga qarshi xulq-atvor hamda bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.

Ma'ruzalar kursida «korrupsiya» tushunchasi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini, ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirishning usul va shakllari, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning ijtimoiy salbiy oqibatlari, shu jumladan, bu kabi huquqbuzarliklarni sodir etgan xodimlarning ayanchli taqdirini, ichki ishlar organlaridagi korrupsion holatlarni aniqlash, o'rganish, tahlil qilish va ularga baho berish, ichki ishlar organlari xodimlarida korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish, amalga oshirish hamda bu borada amaldagi qonun normalarini qo'llash, ichki ishlar organi xodimi sifatida o'zini o'zi tarbiyalash hamda korrupsiyaga undovchi ta'sirlardan himoyalalanish va korrupsion motivatsiyadan tiyilish masalalari yoritilgan.

Ma'ruzalar kursi O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ta'lim olayotgan kursant va tinglovchilarda kelgusidagi amaliy faoliyat-

larida «korrupsiya» tushunchasi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini, ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirishning usul va shakllari, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning ijtimoiy salbiy oqibatlari, shu jumladan, bu kabi huquqbuzarliklarni sodir etgan xodimlarning ayanchli taqdirini, ichki ishlar organlaridagi korrupsion holatlarni aniqlash, o'rganish, tahlil qilish va ularga baho berish, ichki ishlar organlari xodimlarida korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish, amalga oshirish hamda bu borada amaldagi qonun normalarini qo'llash, ichki ishlar organi xodimi sifatida o'zini o'zi tarbiyalash hamda korrupsiyaga undovchi ta'sirlardan himoyalaniish va korrupsiyaviy motivatsiyadan tiyilishga doir zaruriy bilim va ko'nikmalarni shakllantiruvchi asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

1-mavzu. ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH VA XODIMLARDA KORRUPSIYAGA QARSHI XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISH O‘QUV KURSINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va «xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish» tushunchasi va o‘quv kursining predmeti

Jamiyatning bugungi rivojlanish jarayoni insoniyatning tobora yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilayotganini erishayotganini ko‘rsatmoqda. Insoniyat bu jarayonda ko‘plab yutuqlarni qo‘lga kiritish bilan birga, o‘zida ayrim ijtimoiy salbiy illatlarni ham tashib yuribdi, jamiyat rivojlanishi bilan o‘sha illatlar ham rivojlanib, o‘zining yangi qirralarini namoyish qilmoqda. Shunday ijtimoiy salbiy illatlar sirasiga korrupsiya ham kiradi. Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar xavflilik darajasiga ko‘ra faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarni emas, balki davlat rahbarlarini ham tashvishga solmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov korrupsiyaning mohiyatini quyidagicha izohlagan: «Korrupsiya mamlakatning siyosiy va iqtisodiy yo‘liga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo‘lmaydigan zarar etkazadi. Bundan tashqari, yangi iqtisodiy munosabatlarga endigina asos solinayotgan va sifat jihatidan boshqa siyosiy tizim shakllantirilayotgan o‘tish davrida korrupsiya o‘z xatti-harakati bilan bu jarayonning yo‘lini to‘sib qo‘yish imkoniga ega»¹.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari, *birinchi* navbatda: huquqiy tartibotni saqlashlari; *ikkinchidan*: qonunni buzganlarga nisbatan chora ko‘rishlari lozim. Agar jinoyatchilikka qarshi kurash asosiy vazifasi bo‘lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari qonunni buzib, jinoyatchi shaxslar bilan noqonuniy aloqada bo‘lsa, boshqalardan qonunlarni buzmaslikni talab qilishga bunday xodimlarning haqi yo‘q.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o‘zining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganning 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi «Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam

¹ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т.,1998. – Б. 429.

poydevoridir» nomli ma’ruzasida «...biz kelajakda yurtimizning ishonchi va mexrini qozongan, tom ma’nodagi xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratishimiz kerak» hamda «**Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak**» degan prinsip barcha bo‘g‘indagi rahbarlar faoliyatida asosiy qoidaga aylanishi kerak¹ deb ta’kidlangan edi.

Shundan kelib iqib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari xususan ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish **bugungi kunning dolzarb masalasidir**.

Ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish deb ichki ishlar organlari xodimlarida vatanparvarlik, kasbga va xizmat qasamyodiga sodiqlik, fidoyilik, sabr-toqat, shukronalik tuyg‘ularini hamda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga murosasiz munosabatni shakllantirishga aytiladi.

Korrupsiyaning xalqaro xususiyatga egaligi butun dunyoda e’tirof etilgan. Bu korrupsiyaning universalligida ham, uning xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar samaradorligini keskin pasaytiruvchi transmilliy turlari paydo bo‘lganida ham o‘z ifodasini topmoqda. Korrupsiya hodisasini istalgan davlatda ko‘rish mumkin. Ushbu illatga qarshi kurashish masalalari borgan sari muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Chunki korrupsiya ijtimoiy xavfli hodisa sifatida bevosita davlat institutlari va ijtimoiy hayot barqarorligiga tahdid soladi.

2017-yil 22-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasida: «...davlat xizmati institutini isloh qilish, korrupsiyaga qarshi ta’sirchan kurash mexanizmlarini joriy etish kerak. Bugun hayotning o‘zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo‘l ochish bo‘yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda. Yuqorida zikr etilgan vazifalarni bajarish uchun O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini og‘ishmay amalga oshirishimiz darkor. Ma’lumki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish maqsadida ushbu yo‘nalishda alohida qonun qabul qilindi. Shu asosda aniq maqsadlarga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z

¹ *Мурзиёев Ш.М.* Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. – Т., 2017. – Б. 64.

ichiga olgan davlat dasturi izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Ana shunday ishlarimiz natijasida shu yilning 9 oyida korrupsiya bilan bogʻliq jinoyatlar oʻtgan yilga nisbatan 33 foizga kamaydi. Biz bunday natijalarni korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi uzoq va davomli faoliyatimizning dastlabki samarasi, deb qabul qilishimiz, bu yoʻlda yanada qatʻiy ish olib borishimiz shart»¹ deb biz ichki ishlar organlari xodimlarining oldiga maʼsuliyatli vazifalarni belgilab berdilar.

Ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish oʻquv kursining predmeti – ichki ishlar organlari xodimlarida vatanparvarlik, kasbga va xizmat qasamyodiga sodiqlik, fidoyilik, sabr-toqat, shukronalik tuygʻularini hamda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga murossasiz munosabatni shakllantirish bilan bogʻliq boʻlgan muammolar, ularning echimlari va ushbu jarayondagi ijtimoiy munosabatlarga aytiladi.

Oʻzbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyuldagi «Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) Oʻzbekiston Respublikasining qoʻshilishi toʻgʻrisida»gi qonuni korrupsiyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy mexanizmini takomillashtirish sohasida yangi bir bosqichga koʻtarilish uchun asos boʻldi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda korrupsiyaviy aloqalarga ega boʻlgan uyushgan jinoiy tuzilmalar, ayniqsa uning xalqaro aloqalarga ega boʻlgan hamda xalqaro miqyosda faoliyat koʻrsatayotgan tuzilmalari Oʻzbekistonning milliy xavfsizligiga tajovuz qiluvchi eng xavfli va jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalari bilan uzviy boʻlgan nihoyatda xavfli va murakkab hodisalardir .

Shuni ham unutmaslik kerakki, tamagirlik, toʻrachilik, poraxoʻrlik, kibr-havo, korrupsiya nihoyatda yuqumli va xavfli kasallikdir. Oʻz vaqtida uning oldi olinmasa, bu maraz butun jamiyat tanasiga yoyilishi va uni halok qilishi mumkin. Bu illat, avvalo, shu kasalga muhtalo boʻlgan odamning oʻzini eb ishdan chiqaradi. Uning iymonini, oxiratini xonavayron qiladi. Soʻngra, boshqa insonlarni, asta-sekin butun jamiyatni emirishga oʻtadi.

Keltirib oʻtilganidek, korrupsion huquqbuzarliklarning mavjud ijtimoiy xavfi unga qarshi kurashni yanada dolzarblashtiradi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси // Халқ сўзи. – 2017. – 23 дек.

Xalqaro Valyuta Fondi ijrochi direktori Kristian Lagart o'zining «Korrupsiya haqida ochiq gap» essesda ma'lumot berishicha, Xalqaro Valyuta Fondi 2015-yil yakunlari bo'yicha korrupsiyaning umumiy hajmini 1,5-2 trln AQSh dollariga baholagan va dunyoda yaratilayotgan YaIMning 2 foizini pora tashkil qilar ekan. K.Lagartning fikricha, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun davlat xizmatini professional va etarlicha mustaqil kadrlar bilan jamlash kerak bo'ladi. O'tkazilgan global so'rovlar natijasida korrupsiya jamoatchilik tomonidan kambag'allik va ishsizlikdan ko'ra ko'proq muhokama qilinadigan mavzu ekanligi ma'lum bo'lgan.

Korrupsiya er yuzidagi har qanday mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etadigan illatlardan biridir. Korrupsiya va poraxo'rlik davlatni ich-chidan emirishi rivojlangan davlatlar tajribasidan yaxshi ma'lum. Korrupsiya muammolari bilan shug'ullanuvchi «Transparency International» tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, ayni damda dunyoda ko'plab jinoyatlarga sabab bo'layotgan nafs balosi, ya'ni korrupsiya va poraxo'rlik natijasida yiliga bir trillion dollardan ortiq mablag' o'zlashtiriladi.

Hozirgi kunda korrupsiyaviy aloqalarga ega bo'lgan uyushgan jinoiy tuzilmalar, ayniqsa uning xalqaro aloqalarga ega bo'lgan hamda xalqaro miqyosda faoliyat ko'rsatayotgan tuzilmalari O'zbekistonning milliy xavfsizligiga tajovuz qiluvchi eng xavfli va jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalari bilan uzviy bo'lgan nihoyatda xavfli va murakkab hodisalardir.

Shuni ham unutmash kerakki, tamagirlik, to'rachilik, poraxo'rlik, kibr-havo, korrupsiya nihoyatda yuqumli va xavfli kasallikdir. O'z vaqtida uning oldi olinmasa, bu yovuz illat butun jamiyat tanasiga yoyilishi va uni halok qilishi mumkin. U, eng avvalo, shu kasalga muhtalo bo'lgan odamning o'zini eb ishdan chiqaradi. Uning iymonini, oxiratini xonavayron qiladi. So'ngra, boshqa insonlarni, asta-sekin butun jamiyatni emirishga o'tadi.

Ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish o'quv kursining maqsadi

*Ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish o'quv kursining **maqsadi** kursant va tinglovchilarga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning mohiyati va ijtimoiy xavfli oqibatlari, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir*

etgan ichki ishlar organlarining ayanchli taqdiri, ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirishga doir bilimlarni berish hisoblanadi.

Korrupsiya shunisi bilan xavfliki, u:

- jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiradi;
- aholining, xalqning olib borilayotgan islohotlarga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi;

- jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlarda adolatsizlikni vujudga keltiradi;

- eng yomoni, aholi o‘rtasida turli xil noroziliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

«Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi tomonidan 2010-yilning 23-29 mart kunlarida o‘tkazilgan so‘rov natijalari:

«O‘zbekistonda korrupsiya mavjud deb hisoblaysizmi» degan savolga so‘ralganlarning 62,7 foizi – «ha», 20,4 foizi – «axborotga ega emasman», 6,3 foizi – «tushunmayman», 5,7 foizi – «yo‘q» deb javob bergan bo‘lsa, 4,9 foiz ishtirokchilar ushbu savolga javob berishga qiynalgan.

«Sizningcha, davlat va jamiyat hayotining qaysi sohalarida korrupsiya ko‘p uchraydi» degan savolga respondentlarning 21,8 % – «sog‘liqni saqlashda», 20,6 % – «huquqni muhofaza qilish organlarida», 15,5 % – «ta‘lim sohasida», 10,6 % – «barcha sohalarida», 8,5 % – «bank-moliya sohasida», 6,7 % – «davlat avtomobil nazoratida», 6,1 % – «savdo sohasida» deya javob bergan bo‘lsalar, qatnashchilarning 10,4 % ushbu savolni javobsiz qoldirgan.

Korrupsiyaning kelib chiqish sabablari:

- 1) bozor munosabatlarining takomillashmaganligi;
- 2) iqtisodiy tizimning rivojlanmaganligi;
- 3) demokratik prinsiplar va institutlarning rivojlanmaganligi;
- 4) qonunchilikning nomukammaligi;
- 5) jamoat nazoratining sustligi;
- 6) huquqiy madaniyatning yuksalmaganligi;
- 7) davlatning ruxsat berish funksiyasining maksimal darajada bo‘lishi.

Shu bois, korrupsiyaning sabablari va uning sodir etilishiga olib keluvchi shart-sharoitlarni lozim darajada o‘rganish orqaligina uni cheklash va kamaytirishning aniq chora-tadbirlarini belgilash va ishlab chiqish borasida ilmiy izlanishlar olib borish lozim.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy choralari bo‘lmish huquqiy ta‘lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirishni, barcha davlat organlari,

mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonun va huquqqa bo'lgan ijobiy munosabatga etishish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunning 4-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy prinsiplari berilgan bo'lib ular qo'yidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tizimlilik;
- davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- javobgarlikning muqarrarligi.

Har bir korrupsiyaga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi sub'ektlar albatta ushbu prinsiplarga amal qilishi hamda rioya etishlari lozim.

Mamlakatimizda mazkur illatning kelib chiqish sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda oldini olish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, bu kabi jinoyatchilikka nisbatan qat'iy choralar ko'rilmoqda. Hukumatimiz tomonidan davlat xizmatchilari va mansabdor shaxslarning korrupsiya domiga tushib qolmasliklarini ta'minlash, ularning beboshligiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ishlab chiqilgan bir qator uzoq muddatli chora-tadbirlarning ijrosi doimiy nazoratga olingan. Bu esa, o'z navbatida, jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyamizni belgilab beradi. Bir so'z bilan aytganda, ayni paytda mamlakatimizda jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashning barcha huquqiy asoslari yaratilgan. Faqat bu jarayonda yurtdoshlarimizdan hushyorlik, ogohlik va jiddiy mas'uliyat talab etiladi. Shundagina taraqqiyotimiz yanada bardavom, turmushimiz esa farovon bo'lib boraveradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining (bundan keyin Konvensiya) matnida, shuningdek, xorijiy davlatlarning maxsus qonunlarida bir-biri bilan bog'liq, shu bilan birgalikda mazmun-mohiyati bilan bir-biridan farq qiladigan «korrupsiyaning oldini olish» va «korrupsiyaga qarshi kurash» iboralarini uchratamiz. Bizningcha, «korrupsiyaga qarshi kurash» tushunchasi keng bo'lib, u o'z ichiga «korrupsiyaning oldini olish» tushunchasini ham qamrab oladi.

O'zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida jinoyatlar profilaktikasining ustuvorligi e'tirof etilganligidan kelib chiqqan holda aytish joizki, korrupsiyaning oldini olish unga qarshi kurashda ustuvor yo'nalish bo'lib hisoblanadi.

Hozirda jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy muammolar orasida korrupsiyaga qarshi kurash muammosi ayniqsa muhim o'rin egallaydi. Bu hol quyidagi bir necha omillar bilan belgilanadi.

Korrupsiya:

– jamiyatning ma'naviy asoslariga putur etkazadi, davlat hokimiyatini xalq oldida obro'sizlantiradi, norozilikka sabab bo'ladi;

– o'sib kelayotgan yosh avlod ongini zaharlaydi, hayot qallobligu g'irromlikdan iborat ekan degan fikrni vujudga keltiradi;

– ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchni so'ndiradi, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishiga olib keladi;

– xalqaro hamjamiyatda muayyan davlat to'g'risida salbiy tasavvurni yuzaga keltiradi;

– uyushgan jinoyatchilikning davlat xizmati faoliyatiga kirib borishiga olib keladi;

– odil sudlov tizimini izdan chiqaradi;

– amalga oshirilayotgan jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonlarini susaytiradi;

– iqtisodiyotning rivojlanishi va mustahkamlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

– boshqa ko'pgina salbiy ijtimoiy hodisalar singari, o'zining keng ildiz otishiga zamin yaratadi – korrupsiya qancha chuqur ildiz otgan bo'lsa, unga qarshi kurash va uning oqibatlarini bartaraf etish shuncha qiyinlashadi.

Yuqoridagi salbiy omillar qatoriga resurslarning noto'g'ri taqsimoti, xususiyl sektorda raqobat va samaradorlikning pasayishi, davlat byudjeti tushumini kamayib ketishi, ishlab chiqarish va tadbirkorlik xarajatlarning ortib ketishi, davlat sektorida ish sifatini tushishi, tengsizlik va qashshoqlik ko'lamining kengayishi, xususiyl sektorda ish bilan bandlikni kamayishi, qonun ustuvorligiga putur etishi, jinoyatchilikning o'sishi kabi oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini qo'shishimiz mumkin.

Korrupsiya, xuddi temirdagi zang kabi davlat boshqaruvi tizimini emiradi, unga putur etkazadi, davlat xizmati va davlat xizmatchilariga salbiy munosabatni vujudga keltiradi, hokimiyatning obro'sizlanishiga sabab bo'ladi, binobarin, davlatchilik g'oyasiga putur etkazadi.

Korrupsiya – mansab mavqeidan shaxsiyl maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat. Korrupsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat amaldorlari tomonidan shaxsiyl manfaatlarni ko'zlab,

boylik orttirish maqsadida o‘z mansabidan foydalanish, fuqarolardan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo‘lga kiritish tushuniladi.

Kishilik dunyosi korrupsiya bilan qadimdan beri kurashib keladi. Korrupsiya ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida davlat hamda uning boshqaruv sohasidagi mansabdor shaxslari paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan.

Tarixda korrupsiyaga qarshi olib borilgan kurashlarga misollar ko‘p bo‘lgan. Misol uchun, Abu Bakr roziyallohu anhu xalifa bo‘lganlaridan keyin ziyoda bo‘lgan mollarni mehnat tufayli emas, mansab tufayli ko‘paygan, deb e‘tibor qildilar va Baytulmolga qo‘shilishi kerak, deb topdilar (vafot etganidan keyin uning bolalarini ko‘tarib yuradigan nubalik qul va uning bog‘ini sug‘orishda ishlatiladigan tuya chiqqan, xolos).

Bu ish u kishidan keyin bo‘ladigan Islom davlati boshliqlariga ham vojib bo‘lib qoldi. Mansabdan foydalanib mol-mulk orttirish shubhasi bo‘lmasligi uchun, mol-mulkni ziyoda qilishga umuman ruxsat bo‘lmagan.

Umar ibn Abdulaziz xalifalik vaqtida davlatning ishini qilganda, davlatning sha‘midan, o‘zining ishini qilganda o‘zining sha‘midan foydalanganligi haqida rivoyatlar bizgacha etib kelgan¹.

Ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish o‘quv kursining vazifalari

Mazkur o‘quv kursi kursant va tinglovchilarda vatanparvarlik, sabr-toqat, shukronalik, kasbga va xizmat qasamyodiga sodiqlik, fidoyilik tuyg‘ularini shakllantirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklardan tiyilish, bu borada murosasiz kurash olib borish, jamoada korrupsiyaga qarshi barqaror muhitni tashkil etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirish kabi *vazifalarni* bajaradi.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning o‘ziga xos yo‘li. Bu yo‘l inson ma‘naviyatini yuksaltirish hamda ta‘lim-tarbiya sohasini rivojlantirish orqali kurashishdir. Islom Karimovning bugungi kunda dunyoning o‘nlab mamlakatlarida chop etilgan «Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch» asari bu borada muhim rol o‘ynaydi. Ushbu kitobda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan, bir-birini inkor qiladigan ikki xil hayotiy qarash keltiriladi: *birinchisi* – o‘z nonini halol mehnat orqasidan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf etkazadigan, tiriklik

¹ Интернет манзили: <http://islom.uz/content/view/415/111/>

mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo'lishi haqida o'ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar; *ikkinchisi* – hayotning ma'no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o'zini qiynamasdan, faqat nafs qayg'usi va o'tkinchi hoyu havasga, huzur-halovatga berilib, engil-elpi umr kechiradigan, o'zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo'lib yashaydigan odamlarga xos fikr-qarashlar.

Yuqoridagi kabi murakkab muammolarga, mavzularga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratilganiga qaramasdan, bu masala hanuz o'tkir va dolzarb bo'lib qolayotgani asarda tashvish bilan bayon qilingan va insonlarning Shayton izmida emas, Rahmon izmida yurishiga tilak bildirgan.

O'quv kursi bo'yicha kursantlar va tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi: ***Kursantlar va tinglovchilar:***

– korrupsiyaga qarshi ta'limotlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish o'quv kursining tizimi, predmeti, metodlari, tarixi va shakllanishi, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, korrupsiyaga qarshi kurashishda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi, xususan, ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirishning roli, bu borada mavjud bilimlarning ahamiyati hamda so'nggi yillardagi asosiy muammolari haqida tasavvurga ega bo'lishi;

– ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish o'quv kursining predmeti, maqsadi va vazifalarini, «korrupsiya» tushunchasini, ijtimoiy salbiy oqibatlarini hamda korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini, ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirishning usul va shakllari, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning ijtimoiy salbiy oqibatlarini, shu jumladan, bu kabi huquqbuzarliklarni sodir etgan xodimlarning ayanchli taqdiri haqida bilishi va ulardan foydalana olishi;

– ichki ishlar organlaridagi korrupsion holatlarni aniqlash, o'rganish, tahlil qilish va ularga baho berish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish, ichki ishlar organlari xodimlarida korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi profilaktik choratadbirlarni ishlab chiqish, amalga oshirish hamda bu borada amaldagi qonun normalarini qo'llash, ichki ishlar organi xodimi sifatida o'zini o'zi

tarbiyalash hamda korrupsiyaga undovchi ta'sirlardan himoyalash va korrupsion motivatsiyadan tiyilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Korrupsiya – davlat xizmatidagi mansabdor va mas'ul mansabdor shaxslarning o'z mansab mavqei va egallab turgan mansab lavozimi hamda u bilan bog'liq bo'lgan obro'sidan shaxsiy naf ko'rish yoki bir guruh shaxslarning manfaatlari yo'lida g'araz maqsadlarda foydalanishdan iborat bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmishlar yig'indisidir.

Korrupsiyaning **asosiy ko'rinishlari** quyidagilardan iborat:

1) mansab mavqeidan foydalanib, mulkni o'zlashtirish yo'li bilan talon-toroj qilish;

2) hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish;

3) poraxo'rlik¹.

«Korrupsiya, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti, erkin savdo va demokratiya sharoitida oddiy poraxo'rlikdan iborat emas. Lobbizm, favoritizm, proteksionizm, siyosiy maqsadlarga badallar, siyosiy arboblarning va davlat amaldorlarining korporatsiyalar va xususiy firmalarning faxriy prezidentlari lavozimiga o'tish an'analari, tijorat tashkilotlarini davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish, davlat mulkini aksiyadorlik jamiyatlariga o'tkazish, jinoiy uyushmalarning aloqalaridan foydalanish va hokazolar korrupsiyaning **niqoblangan shakllari** hisoblanadi»².

Mansabdor shaxslarning g'ayriaxloqiy va g'ayriqonuniy odatlarini qonuniylashtirish, qarindosh-urug'chilik, oshna-og'aynigarchilik, davlat byudjeti hisobidan o'z ehtiyojlarini qondirish va shu kabilar korrupsiyaning **yashirin shakli** hisoblanadi.

Korrupsiyaning pora olish va xizmat mavqeini suiiste'mol qilish kabi odatdagi shakllaridan tashqari, korrupsiya amalda namoyon bo'lishining quyidagi shakllarini farqlash mumkin:

– mansabdor shaxslar, davlat xizmati xodimlari, deputatlar tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish uchun bevosita ishtirok etishi;

– davlat pul mablag'larini o'zlashtirish niyatida tijorat tuzilmalariga o'tkazish uchun o'z xizmat mavqeidan foydalanish;

¹ Волженкин Б.В. Коррупция и уголовный закон // Правоведение. – 1991. – № 6. – С. 64.; Корыстные злоупотребления по службе (хищения, взяточничество, злоупотребление служебным положением, уголовно-правовая характеристика и проблемы квалификации. Дисс.док.юр.наук. – М., 1991. – С. 16-17.)

² Луцев В.В. Коррупция, учтенная и фактическая // Государство и право. – М., 1996. – № 8. – Б. 80.

- o‘z korporativ guruhi (siyosiy, diniy, milliy va shu kabilar)ga davlat resurslari hisobidan imtiyozlar berish;
- shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida ommaviy axborot vositalariga tazyiq o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavqeidan foydalanish;
- mansabdor shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida tijorat tuzilmalarida soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi;
- shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida axborotni manipulyasiya qilish (buzib ko‘rsatish, bermaslik, berish muddatlarini cho‘zish va shu kabilar) uchun xizmat mavqeidan foydalanish;
- muayyan guruh manfaatlarida normativ hujjatlar qabul qilish haqidagi qarorlarni ilgari surish;
- ayrim nomzodlarning saylov fondlariga davlat moliyaviy va moddiy resurslarini taqdim etish¹.

AQShda korrupsiyaning «kikbeking» degan shakli ancha keng tarqalgan. Uning sxemasi juda sodda: jinoiy til biriktirish ishtirokchilari muayyan narxlarda bitim tuzishga og‘zaki kelishadilar, rasmiy bitimni esa balandroq narxlarda imzolaydilar. Tafovutning bir qismi bitimga ruxsat bergan mansabdor shaxslarga topshiriladi, ya’ni yashirin pora beriladi. Afsuski, pora olishning mazkur shakli (otkat) so‘nggi yillarda biroz o‘zgargan ko‘rinishda O‘zbekistonda ham qo‘llanilmoqda.

¹ Основы борьбы с организованной преступностью / Под ред. В.С.Овчинского и др. 2-ое изд. перераб. – СПб.: 2003. – С. 190-191.

2-MAVZU. «KORRUPSIYAVIY HUQUQBUZARLIKLAR» TUSHUNCHASI, IJTIMOIIY SALBIY OQIBATLARI HAMDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI

«Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar» tushunchasi va ularning bugungi holati

«Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar» tushunchasini yoritishimizdan oldin biz albatta korrupsiya va huquqbuzarlik tushunchalarini yoritib keyin ikkalasini birikmasidan tashkil topgan «Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar» tushunchasini yoritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

«Korrupsiya» atamasining etimologik jihati xususida turli fikrlar mavjud. Keng ommalashgan birinchi fikr tarafdorlariga ko‘ra, etimologik jihatdan «korrupsiya» atamasi lotincha «corruptio» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib «pora evaziga og‘dirish» degan ma‘noni anglatadi¹.

Keyingi qarashga ko‘ra, «korrupsiya» atamasi lotincha «corruptere» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib «buzilish, aynish, tanazzul» degan ma‘noni anglatadi².

Uchinchi fikrga ko‘ra, «korrupsiya» lotincha «corruptum» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib «singan, buzilgan» ma‘noni bildiradi va shaxsiy hayot hamda korporativ foyda yo‘lida jamoat manfaatlariga putur etkazishni anglatadi³.

Ba‘zi slavyan tillarida «korrupsiya» pora ma‘nosida tushuniladi: masalan, «korrumpirati» kesimi serb-xorvatlar tilida «pora berib o‘z tomoniga og‘dirish, pora berish» deb tarjima qilinadi, «korrupenesku» sifati esa, chexlarning tilida «sotiluvchi, sotqin» ma‘nosini anglatadi⁴, rus tilidagi korrupsiya – bu pora evaziga sotib olish, mansabdor shaxslarning, siyosiy arboblarning sotqinligidir⁵.

¹ Криминология: Учебник / Отв.редактор М.Х.Рустамбаев. – Т., 2008. – С.219.

² <http://ru.wikipedia.org/wiki/Коррупция>

³ Зуфаров Р. Порахўрлик- коррупция негизи // Давлат ва ҳуқуқ. – 2000. – № 4. – Б.41.

⁴ Абдурасулова Қ., Қурбонов О. Коррупция: асосий тушунча ва шакллари: Рисола. – Т., 2009. – Б. 14-15.

⁵ Егорова Н.Е. Уголовно-правовые формы борьбы с коррупцией в новых экономических условиях. Автореф. дисс. ... канд.юрид.наук. – Саратов, 1996. – С.22.

Korrupsiya soʻzi adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Uning yagona tushunchasi yoʻq. Hatto, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarida ham unga turlicha taʼriflar berilgan.

Xalqaro hujjatlarda birinchi bor «korrupsiya» tushunchasiga BMT Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan «Huquqiy tartibotni saqlash boʻyicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksi»da toʻxtalangan boʻlib, unda korrupsiya deganda «... mansabdor shaxsning har qanday shakldagi mukofot evaziga oʻz mansab vakolatlari doirasida mazkur mukofotni beruvchi shaxs manfaatlarini koʻzlab, lavozim yoʻriqnomasi qoidalarini buzgan holda yoki buzmasdan muayyan harakatlarni bajarishi yoki harakatsizligi»¹ tushuniladi deyilgan.

BMT Bosh Assambleyasining 1990-yil Gavanada «korrupsiya» muammolariga bagʻishlab oʻtkazilgan mintaqalararo seminarida qabul qilingan Davlat xizmatchilari uchun xalqaro xulq-atvor kodeksida «korrupsiya bu mansabdor shaxslarning shaxsiy yoki guruh manfaatini koʻzlab mansabini suiisteʼmol qilish, shuningdek, davlat xizmatchilari tomonidan oʻzlari egallab turgan xizmat vazifalaridan gʻayriqonuniy foydalanish koʻrinishlaridir», deyiladi.

Evropa Kengashi guruhining korrupsiya muammolari boʻyicha 1995-yil 22-24-fevralda Strasburgda oʻtkazilgan birinchi sessiyasida «korrupsiya davlat yoki xususiy tizim mansabdor shaxslarini ularning mansab vakolatlari doirasida oʻzlarining vazifalarini buzib bajarishlari uchun ularni pora evaziga ogʻdirib olinishidir», deb taʼrif berilgan.

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida korrupsiyaga eng qisqa, lekin keng qamrovli taʼrif quyidagicha berilgan: «Korrupsiya – bu shaxsiy naf koʻrish maqsadida davlat hokimiyatini suiisteʼmol qilishdir»².

Bugungi kunda, kriminalist olimlar oʻrtasidagi bahslarda, jinoyat, fuqarolik, maʼmuriy, mehnat, xoʻjalik huquqi sohasidagi mutaxassislar-ning ilmiy ishlarida, ommaviy axborot vositalarida «korrupsiya» iborasi turli maʼnolarda qoʻllanilmoqda, bu esa korrupsiya ijtimoiy-huquqiy hodisa boʻlib, jinoyatchilikning oʻta salbiy koʻrinishidir, deb xulosa qilish imkonini beradi.

Baʼzi manbalarda esa, bu atama «iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar» va «mansabdorlik jinoyatlari» kabi soʻzlar bilan bir qatorda qoʻllaniladi.

¹ Кодекс поведения должностных лиц по поддержанию правопорядка (Принят резолюцией Генеральной Ассамблеи от 17 декабря 1979 г.).

² Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции (Принята резолюцией Генеральной Ассамблеи от 31 октября 2003 г.).

Respublikamizda chop etilgan kitob va maqolalarda ham korrupsiya deyilganda, yuqori mansabdagi shaxslar tomonidan sodir etiladigan poraxoʻrlik nazarda tutiladi¹.

Shu oʻrinda professor Q.R.Abdurasulovning quyidagi fikrlari oʻrinlidir: «Korrupsiya davlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarayotgan va ularga tenglashtirilgan shaxslar tomonidan oʻz xizmat vakolatlari yoki ular bilan bogʻliq imkoniyatlardan foydalanib, gʻaraz maqsadda yoki boshqa shaxsiy manfaatni koʻzlab sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar (bu qilmishlar uchun javobgarlik Oʻzbekiston Respublikasi JKning tegishli moddalarida nazarda tutilgan) yigʻindisidir»².

Korrupsiya real voqelikda turli shakllarda paydo boʻladi. Ushbu shakllarning turli tumanligi korrupsiyaga uni hodisa yoki voqea sifatida taʼrif berishga ham taʼsir qiladi. Masalan, rus olimlari S.I.Ojegov va N.Yu.Shvedova korrupsiyani amaldor shaxslar va siyosatchilarning axloqiy buzilishi sifatida taʼrif berishgan. Mazkur «axloqiy buzilish» noqonuniy boylik orttirish, poraxoʻrlik, oʻzlashtirish kabi jinoyatlarda hamda davlat amaldorlarining xokimiyatning barcha tizimida jinoiy unsurlar vakillari bilan birlashib ketishida namoyon boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida»gi qonunida «**korrupsiya**»ga — shaxsning oʻz mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud oʻzga shaxslarning manfaatlarini koʻzlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish, deb taʼrif berilgan.

Hozirgi zamon milliy va xalqaro huquqida tobora koʻp qoʻllanilayotgan atamalardan biri – bu korrupsiyadir. Korrupsiya, albatta, bugun paydo boʻlgan illat emas. Qadimgi yunon faylasufi **Aristotel** bu haqda shunday degan: «Har qanday davlat tizimida qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda mansabdor shaxslarning noqonuniy yoʻl bilan boyishiga yoʻl qoʻymaslik lozim». Fransuz mutafakkiri **Sharl Lui Monteske** esa, «...har qanday hokimiyat vakolatiga ega boʻlgan shaxs, uni suiisteʼmol qilishga moyil boʻladi va u maʼlum bir maqsadga erishmaguncha shu yoʻnalishda yuradi» degan fikrni bildirgan.

¹ *Зуфаров Р.А.* Порахўрлик учун жавобгарлик. – Т., 2004. – Б.203.; *Ахроров Б.Ж.* Мансабдорлик жиноятлари учун жавобгарлик. – Т., 2007. – Б. 268.

² *Абдурасулова Қ., Қурбонов О.* Коррупция: асосий тушунча ва шакллари: Рисола. – Т., 2009. – Б.60.

Korrupsiyaning kelib chiqishi tarixi va rivojlanishi masalalarini o‘rgangan **Nikolo Makiavelli** uni yo‘talga qiyoslab shunday degan edi: «Korrupsiyani ham yo‘talga o‘xshab oldin aniqlash qiyin, ammo davolash oson, lekin bu kasalni o‘tkazib yuborsangiz, uni aniqlash oson, ammo davolash qiyin».

Amerikalik tadqiqotchi olimlar korrupsiyani «siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy xavfli ko‘rinish» deb ta’rif berishadi. Ularning fikricha, korrupsiya davlat hokimiyati vakillari tomonidan o‘zining xizmat mavqeini qasddan mulkiy va nomulkiy manfaat va foyda olishning har qanday shaklida, shuningdek ushbu hokimiyat vakillarining to‘liq sotib olinishida namoyon bo‘ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurash O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ma‘muriy-huquqiy islohotlarning muhim ahamiyatga ega yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning deyarli barcha ma‘ruza va chiqishlarida korrupsiyaga qarshi kurash masalalariga alohida e‘tibor qaratilib, uning islohotlar yo‘lidagi to‘siq va davlatimizning xavfsizligiga jiddiy tahdid ekanligi uqtiriladi.

Korrupsiyaga nisbatan yuqorida keltirilgan ta’riflarning umumiy-ligini korrupsiya – o‘z ehtiyoj va manfaatlarini boshqalar hisobiga qondirish uchun huquqiy va axloqiy normalarning buzish holatlarida aks etadi.

Boshqacha qilib aytganda, *korrupsiya* – bu pora sifatida pul, turli mol-mulk, xizmat ko‘rsatish turlari, umuman olganda shaxsiy manfaat uchun turli ko‘rinishdagi narsalarni olish tushuniladi. Korrupsiya mamlakat iqtisodiyotiga tahdid soladigan ijtimoiy hodisadir. Bu poraxo‘rlikda namoyon bo‘ladi. Biroq, «korrupsiya» «poraxo‘rlik»dan kengroq tushuncha bo‘lib, poraxo‘rlik uning negizini tashkil etadi¹.

«**Huquqbuzarlik**» tushunchasiga O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘rsida»gi qonunning 3-moddasida ta’rif berilgan bo‘lib unga ko‘ra: **huquqbuzarlik** – sodir etilganligi uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayri-huquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) deb ta’rif berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak: *Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik* deganda, davlat organi vakolatini bajaruvchi yoki unga tenglash-

¹ *Жалолов Ш.Р.* Порахўрлик – коррупцион жиноятларнинг асоси // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. – 2017. – № 4. – Б. 57.

tirilgan shaxs o'z xizmat lavozimidan yoki davlat organi maqomidan foydalanib moddiy manfaat va ustunlik olish uchun sodir etgan huquqqa xilof xatti-harakat tushuniladi. Masalan, berilgan davlat va munitsipial mulk huquqini xizmat manfaatidan tashqari, xususan davlat funksiyasini bajarish uchun berilgan xona, transport, aloqa vositasi, elektron hisoblash texnikasi, shuningdek xizmat ma'lumotlaridan foydalanish uchun berish bilan bog'liq holda uchinchi shaxslardan noqonuniy mulkiy boylik va imtiyozlar olish agarda bunday foydalanish amaldagi qonunlarda ko'rsatilmagan bo'lsa; davlat organi uchun o'rnatilgan qaror qabul qilish, fuqarolarning va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibini buzish (agar bu buzishlar qaror qabul qilishda bunday shaxslarga afzalliklar olib kelsa); o'z xizmat maqomi yoki tegishli davlat organi maqomidan uchinchi shaxslar manfaatlari yo'lida foydalanish va h.k.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunning 3-moddasida «**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik**»ka – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish, deb ta'rif berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar: *jinoiy va ma'muriy* huquqbuzarliklarga bo'linadi.

Shu bois korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ilmiy-amaliy yondashuvga asoslanish, bu sohadagi muammolarni ilmiy tadqiq etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasida muhim o'rin tutuvchi aholining, ayniqsa yoshlarning bu boradagi huquqiy madaniyati va bilimlarini oshirib borish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda, korrupsiyaning kuchayishi, uning jinoyat olami bilan ko'shib ketish holatlari bilan nihoyatda xavflidir. Chunki uyushgan jinoyatchilik doimiy ravishda, davlat apparatining har qanday bo'g'inini o'ziga bo'ysundirishga urinadi. Bu esa, byurakratiyaning zaifligi, jamiyat faolligining pastligi, korrupsiya bilan kurashish lozim bo'lgan organlarning professional darajasining pastligi natijasida ushbu jarayonning engil ko'chishiga sabab bo'ladi.

Biz yuqorida aytganimizdek, korrupsiyaga huquqbuzarlik (jinoyat) deb ta'rif berilishi o'z o'zidan «har bir inson o'ziga xos huquqbuzar yoki jinoyatchi bo'ladimi» degan o'rinli savolni keltirib chiqaradi. Chunki har bir inson, birinchi navbatda, o'zining shaxsiy manfaatlarini qondirishni keyin esa boshqalarning manfaati haqida o'ylaydi.

Korrupsiya va uning uchun javobgarlikning shakllanishi tarixiga nazar solinganda shu narsa ko'zga tashlanadiki, Rossiyada qadimda pora bilan ish haqi unchalik darajada farq qilmas edi. XVIII asrga qadar davlat amaldorlari aholi hisobidan kun ko'rgan. Bunda kimning masalasi ko'rib chiqilsa, arizachi tomonidan amaldorlarga hadya berilgan. Bunday hadyalar esa, odatiy hol hisoblanib, qonunchilikni buzilishi sanalmagan. Chunki, amaldorlar davlatdan oylik maosh olmas edilar.

XVII asrda «pora» so'zi uch xil nomga, ya'ni «qadrlash», «eslash» va «va'da» ma'nosiga ega bo'lgan. «Qadrlash» ishni hal qiluvchi amaldorga, avvaldan beriladigan sovg'a. «Eslash» tariqasidagi sovg'a esa ish bitganidan so'ng berilar va har ikkalasi ham odatiy hol va sovg'a deb tushunilar edi. «Va'da» esa, qonunni buzganligi uchun to'lov bo'lib, qo'lga tushgan amaldor jismoniy jazoga tortilar edi.

1715-yildan boshlab barcha amaldorlar davlatdan belgilangan oylik ish xaqi ola boshlab, natijada poraning har qanday ko'rinishiga nisbatan jinoyat sifatida qarala boshlangan. Lekin pora olish va berish davom etavergan. Poraxo'rlarga jiddiy kurash Ekaterina II tomonidan amalga oshirildi. U unga qasamyod qilishga kirish uchun Novgorod guberniyasida pora berish shart ekanligini bilib qolgach, poraxo'rni jamoat oldida jazolagan¹.

Malika Ekaterina II poraxo'rlarni jazolagan bo'lsa-da, aslida keskin ravishda o'zgarishlar qilishga umid qilmagan. Chunki, 1763-yilda uездlarda davlat xizmatchilarining 1 yillik oylik maoshi 30 rubl bo'lsa, guberniyalarda 60 rubl, markaziy va oliy muassasalarda 100-150 rublni tashkil etgan, bug'doyning narxi o'sha patlarda 15 kopeyka (tiyin) bo'lgan va bu maosh oilani tebratishga etmagan.

Yillar o'tgan sayin vaziyat yanada keskinlashib, davlat idoralarining barcha tarmoqlarida ishlar pora evaziga bitkazilgan. O'sha paytlardan beri davlat xizmatchilarining oylik maoshi munosib ravishda o'sdi, biroq hozirgi kungacha poraxo'rlik borasida hech narsa o'zgarmadi².

Korrupsiya lavozim bilan bog'liq bo'lgan jinoyat bo'lib, mansabdor shaxs o'z lavozimidan foydalangan holda amalga oshiradi. Shaxsiy hududga aylangan sahroga borib qolgan kishi qumni bir joydan ikkinchi

¹ Электронный ресурс: www.Korr-Russia.ru

² Лошакова С.А. Эволюция международно-правовых аспектов сотрудничества государств в борьбе с коррупцией / С.А.Лошакова // Безопасность бизнеса. – 2009. – №2.

joyga tashiyotgan bo'lsa, bu qonunga xilof harakat hisoblanadi. Chunki qumning egasidan ruxsat olinmagan¹.

Endi esa, qo'liga 100 million so'm berib, nimani, qaerga, qancha sarflash vazifasi topshirilgan amaldorni ko'z oldingizga keltiring. Garchi shu pullardan bir tiyini ham o'z cho'ntagiga solmasligi haqida ogohlantirilgan bo'lishiga qaramasdan bunday paytda, ko'pchilik berilgan imkoniyatdan vos kecha olmaydi.

Ushbu sohada turli mamlakatlarda sodir etiladigan korrupsion harakatlar sxemasi hamda aldov yo'li turli mamlakatlarda, bir-biridan uncha farq qilmaydi. Inson tabiatidan kelib chiqsak, tez va engil boy bo'lish imkoniyati paydo bo'lganda har qanday shaxs o'ylanib qoladi. Mazkur holatda qonunga zid qilmish oqibatini anglab tursa ham, ko'pchilik o'zini to'xtatib qololmaydi. Bu boradagi qarorni qabul qilishda kishining oldida turgan quyidagi tanlovlarning mavjudligi ham katta rol o'ynaydi:

- oilaviy ahvoldagi qiyinchilik;
- moddiy etishmovchiliklar;
- hayotiy masalalar.

Porani bugungi kunda faqat amaldorlar emas, balki korrupsiyalashgan oliy ta'lim sohasi vakillari ham olishadi. Bunga sovet davridan qolgan meros sifatida qarash mumkin².

Oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyani uchta holatda keng uchrashini kuzatish mumkin: bu, kirish imtihonlari davrida, bevosita ta'lim jarayonida, yakuniy imtihonlar va bitiruv malakaviy ish (diplom ishi)ni yozish vaqtida.

Ushbu korrupsiyaviy holatlarni tugatish uchun yagona davlat imtihoni, shuningdek, ko'p oliy ta'lim muassalarida o'zlashtirishning oraliq nazoratiga oid turli xil usullari kiritilgan edi. Lekin ular ham sessiya paytidagi poraxo'rlikka barham bera olmadi. Bunday norasmiy amaliyotdan ta'lim sifati katta zarar ko'radi. Korrupsion tizimning samaradorligini «ko'rgan ayrim talabalar» o'zlarini kelgusida poraxo'rlik kar'erasini tanlaydilar. Buning natijasida turli xil olimlik darajasini olishga bo'lgan talab kuchayadi, bu esa oliy ta'limdan so'nggi jarayon-

¹РомановБ.К. Коррупция: Расходы и доходы чиновников [Текст]: БЛОГ URL:<http://echo.msk.ru/blog/fedor/926419-echo>

² Борьба с преступностью за рубежом: Информ сб. – М., 1991. – Б. 75; Орзаг-Ленд Т. Борьба с коррупцией среди служащих полиции // Обзор зарубежного опыта. – 2002. – №18. – Б. 44-47.

ning sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, olimlik darajasini olish, uning egasiga ijtimoiy mavqe beradi. Uning ishga joylashishi osonlashadi, oylik maoshi oshadi, shuning uchun odamlar bunga tezroq erishish uchun noqonuniy, norasmiy yo'llarni tanlab, bu darajaga tezroq erishishning korrupsion sxemasini tanlaydilar.

Biroq bugungi kunda ta'lim sohasida aylanayotgan qora pullar xaqida ishonchli ma'lumotlarni topish qiyin. Negaki, olayotganlar ham, berayotganlar ham buni sir tutishadi. Agar bu sir oshkor bo'lsa, amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra ikki tomon ham jinoiy javobgarlikka tortilishi talab etiladi. Bu esa har ikki tomon manfaati uchun ham mos kelmaydi. Lekin amalda faqat pora olgan o'qituvchigina, o'z faoliyatdan chetlashtirilib, porani bergan tomon esa, jazosiz qolib ketaveradi. Ko'pchilik, oliy ta'lim muassasalaridagi poraxo'rlikni kamaytirish uchun esa javobgarlik masalasini hal qilayotganda har ikkala tomonning barobar javobgarlikka tortilishini ta'minlash shart va shundagina samarali natijaga erishish mumkin deb hisoblaydilar.

Eng qizig'i, aholining ko'pchiligi korrupsiyaga qarshi kurashish befoyda, deb hisoblaydi. Bu ayniqsa, o'zbek xalqiga tegishli bo'lgan o'ziga xos xususiyat. Odatda, bu toifadagi insonlar o'zlarini pora oluvchi shaxslar qatoriga kiritmaydi. Ammo davlat tomonidan olib borilayotgan korrupsiyaga qarshi kurash harakatlarini birtomonlama natijasiz deb, bo'lmaydi. Buni mavjud statistik ma'lumotlardan ham kuzatish mumkin. 2017-yilda IIV JQBB korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi hamda uning quyi tizimlari tomonidan 1 ming 300 dan ziyod korrupsiya va iqtisodiyot asoslariga qarshi sodir etilgan jinoyatlar aniqlangan. Mazkur jinoyatlar poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik, valyuta qoidasini buzish, qalbaki pul yasash, talon-tarojlik hamda boshqa turdagi holatlar bilan bog'liq. Tezkor-qidiruv chora-tadbirlari natijasida 374 ta guruh jinoyatlari fosh etilgan.

Oliy sud matbuot xizmatining ma'lumotiga ko'ra 2017-yil poraxo'rlik bilan 2.5 ming nafarga yaqin shaxsga jinoiy javobgarlikka tortilgan. 1.7 mingdan ortiq jinoyat ishi bo'yicha. Korrupsiyaga qarshi kurashishda, avvalo, har bir inson o'z faoliyatini isloh qilishi kerak. Islohotlar avvalo inson ongini o'zgartirishdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yildan yilga yangi va zamonaviy qonun loyihalari qabul qilinmoqda va turli kurash strategiyasini belgilab bermoqda. Biroq ushbu korrupsiyaga qarshi kurashishga doir strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda avvalambor har birimiz o'zimizdan boshlasak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning ko‘rinishlari va ijtimoiy salbiy oqibatlari

Korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning iqtisodiy mohiyati va huquqiy baholanishi o‘zaro farqlanadi. Iqtisodiy jihatdan, bu erkin bozor qonunchiligidan mos kelmasidan yashirincha yuz beradigan munosabatdir. Bu munosabatda barcha korrupsiyalashgan unsurlarning manfaati uyg‘unlashadi. Amaldor xizmatiga talab bo‘lganidan, u sotadi. Bu erda pora yashirin xizmat shakliga kiradi. Poraxo‘rlikda ham bozor munosabati bor, lekin bu tor egoistik manfaatga bo‘ysunuvchi munosabat bo‘lganidan uni jamiyat tan olmaydi, chunki bu erda ayrim shaxslar yoxud guruhlar manfaatining amalga oshishi boshqalar manfaatiga yo‘l bermaslik hisobidan bo‘ladi, shu vajdan buni jamiyat qabul qilmaydi, u yashirin tus oladi¹.

Nazariya va amaliyotda korrupsiyaning sabablari har xil talqin etiladi. Iqtisodiyotshunos olimlardan Sh.R.Qobilov va N.B.Abdullajonovlar mazkur sabablarning ob‘ektiv va sub‘ektiv bo‘lishiga e‘tibor berib, ular orasida qonunchilikning nomukammalligi, demokratik prinsiplar va institutlarning rivojlanmaganligi, davlatning kuchsizligi kabilarni keltirib o‘tishadi. Ularning fikricha, korrupsiyaning mavjudligini iqtisodiy tizimning o‘zidan qidirish kerak.

Korrupsiyaning ob‘ektiv sabablaridan biri davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va shunga bog‘liq holda biznesni rivojlantirish muammolarini hal qilish davlat amaldorlariga bog‘liq bo‘lishidir. Davlatning iqtisodiyotga ta‘siri iqtisodiy, huquqiy va ma‘muriy usullar orqali yuz beradi. Bu usullarning qo‘llanilishi amaldorlar faoliyatiga bog‘liqdir.

Ayrim tadqiqotchilar korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini aniqlashda davlat qonunlarining nomukammalligiga urg‘u beradilar. Biroq hech qachon va hech qaerda abadiy mukammal qonunlar bo‘lmasligiga, odatda qonunlar real hayotdagi o‘zgarishlardan orqada qolganligi uchun ham tez-tez o‘zgartirilib, to‘ldirilib borilishiga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Ayrim olimlar va siyosiy arboblarning esa sabab sifatida davlat amaldorlari ish haqining kamligini e‘tirof etishadi. To‘g‘ri, bu ham poraxo‘rlikni kuchaytirishi mumkin, biroq birdan-bir sabab sifatida qayd etib bo‘lmaydi. Chunki, ish haqining ozligi quyi tabaqadagi amaldorlarni poraxo‘rlikka undashi mumkin, ammo katta miqdorda pora olish yuqori mansabli amaldorlarga xosligini unutmazlik kerak.

¹ *Қобилов Ш.Р., Абдуллажонов Н.Б. Коррупция ва хавфсизлик. – Т., 2006. – Б. 5.*

Umuman olganda, yuksak likvidli aktivlarning mavjudligi va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, demokratiya darajasining pastligi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning *ob'ektiv* sabablari bo'lsa, aholi ma'naviyatining darajasi va axloq-odobi, demokratiya qoidalariga sodiqligidagi nuqsonlar korrupsiyaning *sub'ektiv* sabablariga kiradi. Sub'ektiv munosabat korrupsiyani tag-tomiri bilan yo'qota olmaydi. Chunki uning ildizlari iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish darajasiga borib taqaladi¹.

Korrupsiyaning shakllari va turlari. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda, davlat amaldorlari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko'zlab, boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo'lga kiritish tushuniladi. Ammo davlat amaldorlarigina emas, masalan, firmalarning menejerlari ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo'lishi, pora bilan emas, boshqa shaklda berilishi mumkin. Korrupsiya tashabbuskorlari ba'zan davlat amaldorlari emas, tadbirkorlar hisoblanadi.

Mansab mavqeini suiiste'mol qilish shakllari g'oyat rang-barang bo'lgani bois turli mezonlarga ko'ra korrupsiyaning har xil turlari farqlanadi. Xususan, korrupsiyani bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin:

Yuridik adabiyotlarda korrupsiya bir nechta asosiy turlarga ajratib o'rganiladi:

1) *sub'ektlarning maqomiga ko'ra:*

a) hokimiyat organlaridagi korrupsiya;

b) xususiy sektordagi korrupsiya;

v) siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya².

2) *faoliyat ko'rsatish darajasiga ko'ra:*

a) yuqori darajadagi korrupsiya;

b) quyi darajadagi korrupsiya;

v) vertikal korrupsiya³.

3) *ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra:*

a) korrupsiya-qilmish;

b) korrupsiya-jinoyat.

4) *o'zaro hamkorlik qiluvchi sub'ektlar turiga ko'ra:*

a) fuqarolar va xizmatchilar o'rtasidagi korrupsiya;

b) xo'jalik yurituvchi shaxslar va mansabdor shaxslar o'rtasidagi korrupsiya;

¹ Ўша манба. – Б. 6-11.

² Алауханов Е.О., Турсынбаев Д.Е. Борьба с коррупцией в государственных органах Республики Казахстан: Учебное пособие. – Алматы, 2008. – С.27.

³ Ўша жойда.

a) millat va siyosiy rahbariyat o'rtasidagi korrupsiya.

5) *manfaatning turiga ko'ra:*

a) foyda olishga qaratilgan korrupsiya;

b) xarajatlarning qisqarishiga qaratilgan korrupsiya.

6) *yo'nalishiga ko'ra:*

a) ichki korrupsiya;

b) tashqi korrupsiya.

7) *markazlashganlik darajasiga ko'ra:*

a) markazlashgan korrupsiya;

b) markazlashmagan korrupsiya.

8) *sub'ektlarning o'zaro hamkorlik usuliga ko'ra:*

a) mahalliychilikka asoslangan korrupsiya;

b) qarindosh-urug'chilikka asoslangan korrupsiya;

v) tanish-bilishchilikka asoslangan korrupsiya.

9) *faoliyat sohasiga ko'ra:*

a) yoqilg'i-energetika sohasida;

b) mashinasozlik, kimyo va metallurgiya sohasida;

v) agrosanoat sohasida;

g) xalq iste'moli mahsulotlari, savdo va xizmat ko'rsatish sohasida;

d) qurilish, transport va aloqa sohasida;

e) ijtimoiy masalalar (sog'liqni saqlash) sohasida;

yo) madaniyat sohasida;

j) fan va ta'lim sohasida;

z) tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida;

i) moliya-bank tizimi;

k) hokimiyatlar; nazorat qiluvchi organlarda;

l) huquqni muhofaza qiladigan organlardagi korrupsiya va boshqalar.

Shuningdek, korrupsiyaning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

Maishiy (turmushdagi) korrupsiya. Korrupsiyaning ushbu turi oddiy fuqarolar va amaldorlar o'rtasida vujudga keladi hamda fuqarolar tomonidan mansabdor shaxsga va uning oila a'zolariga turli sovg'alar berish yoki xizmatlar ko'rsatishda ifodalanadi. Bunga oshna-og'aynigar-chilik, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, mahalliychilik asosida yon bosish, yordam berish ham kiradi.

Ish yuzasidan olib boriladigan korrupsiya. Korrupsiyaning mazkur turi davlat hokimiyati va biznes vakillarining o'zaro hamkorligi natijasida vujudga keladi. Misol uchun ishning o'z foydasiga hal qilinishi uchun, tezroq bitishi uchun taraflardan biri shunday taklif bilan chiqadi yoki bunday taklif berishga majbur bo'ladi.

Oliy davlat hokimiyatidagi korrupsiya. Korrupsiyaning ushbu turi davlatning eng yuqori lavozimlarini egallab turgan shaxslar tomonidan sodir etiladi va davlat siyosatidan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishlarida ifodalanadi.

Ta’kidlanganidek, faoliyat ko‘rsatish darajalariga ko‘ra, *quyi darajadagi, yuqori darajadagi va vertikal darajadagi korrupsiya* farqlanadi.

Quyi darajadagi korrupsiya hokimiyat hamda boshqaruv organlarining o‘rta va quyi darajalarida, ayniqsa keng tarqalgan bo‘lib, amaldorlar va fuqarolarning muntazam o‘zaro aloqasi bilan bog‘liq (ruyxatdan o‘tkazish, jarimalar, litsenziyalash, turli ruxsatnomalar olish va shu kabilar).

Yuqori darajadagi korrupsiya hokimiyat organlarida ishlaydigan siyosatchilar, oliy martabali amaldorlarni qamrab oladi va u juda katta qimmatga ega bo‘lgan qarorlar qabul qilish (qonunlarni ilgari surish va qabul qilish, davlat buyurtmalari, mulk shakllarini o‘zgartirish va shu kabilar) bilan bog‘liq.

Aksariyat hollarda korrupsiya bitimidan manfaatdor bo‘lgan ikkala tomon ayni bir davlat hokimiyati organida ishlaydi. Masalan, qo‘yi turuvchi davlat organining amaldori o‘zining yuqori turuvchi boshlig‘iga o‘zining korrupsiyaviy harakatlariga homiylik qilish yoki qo‘shimcha mablag‘lar, resurslar, vakolatlar berishi uchun pora beradi.

Pora olish va xizmat mavqeini suiiste‘mol qilish kabi shakllardan tashqari korrupsiya amalda namoyon bo‘lishining quyidagi shakllarini farqlash mumkin:

– davlat pul mablag‘larini o‘zlashtirish niyatida tijorat tuzilmalariga o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavqeidan foydalanish;

– o‘z korporativ (siyosiy, diniy, milliy va hokazo) guruhiga davlat resurslari hisobidan imtyozlar berish;

– mansabdor shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida tijorat tuzilmalarida soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi;

– tor guruh manfaatlari uchun normativ hujjatlar qabul qilish haqidagi qarorlarni ilgari surish.

Hokimiyat (ijroiya, vakillik va sud) organlaridagi korrupsiya hozirgi vaqtda jahonning deyarli barcha mamlakatlaridagi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu turdagi korrupsiya jinoyatlarining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularni o‘zlari qonunga rioya etishlari va uni muhofaza qilishlari lozim bo‘lgan kishilar sodir etadi.

Nodavlat tashkilotlar yoki xususiy sektordagi korrupsiya ham hozirgi vaqtda ancha keng tarqalgan. Tashkilot rahbari uning ustavda

belgilangan vazifalariga qat'iy rioya etishi lozim. Lekin u davlat amaldori kabi o'ziga qarashli bo'lmagan resurslarni o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida yoki ikkinchi tomon foydasiga tasarruf etishi, tashkilot manfaatlariga zid bo'lgan harakatlarni sodir etishi mumkin. Bunga kundalik hayotdan misollar: tijorat banklarida maqsadi pul olish va g'oyib bo'lishdan iborat bo'lgan loyihalarga pora evaziga kreditlar berilishi; turli mulk shakliga mansub bo'lgan korxonalarda davlat va korxonalar zarariga moddiy boyliklarni pora evaziga arzon narxlarda olish va hokazo.

AQShda korrupsiyaning «kikbeking» degan shakli ancha keng tarqalgan. Uning sxemasi juda sodda: ishtirokchilar muayyan narxlarda bitim tuzishga og'zaki kelishadilar, rasmiy bitim esa balandroq narxlarda imzolandi. Tafvutning bir qismi bitimga ruxsat bergan mansabdor shaxslarga topshiriladi, ya'ni yashirin pora beriladi.

Xullas, korrupsiya o'ta moslashuvchan salbiy ijtimoiy-huquqiy hodisadir. U vaziyatga qarab tinimsiz o'zgaradi va takomillashib boradi. Shu bois ham jamiyat taraqqiyotining eng xavfli dushmani hisoblangan korrupsiyaga qarshi kurashish insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir.

Korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari

Korrupsiyaga qarshi kurashish muayyan huquqiy asoslar zahirida tashkil etiladi, qonunga asoslanmagan har qanday faoliyat nafaqat huquqiy demokratik davlat prinsiplariga zid, balki amaldagi huquqtartibotni tanazzulga olib keladi. Shu nuqtai nazardan korrupsiyaga qarshi kurashning normativ-huquqiy asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur normativ-huquqiy hujjatlarni, yuridik kuchiga ko'ra, qonunlar va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlariga ajratish mumkin.

Mamlakatimizning asosiy qonuni bo'lgan Konstitutsiyamiz dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren demokratik davlat – O'zbekiston Respublikasi qaror topganligini qonunlashtirdi. Konstitutsiyaning barcha normalaridagi qoidalar demokratik jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni ijtimoiy adolat va insonparvarlik prinsiplariga asoslangan holda tartibga solishning birlamchi asosiy manbai sifatida xizmat qilishi bilan har qanday huquqqa xilof, shu jumladan jinoiy qilmishning oldini olishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo'lib 2017-yilga qadar qo'shimchalar kiritilib kelindi. Konstitutsiyaning muqaddimasida O'zbekiston xalqi: inson huquqlariga

va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda, o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida, o'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi deb qo'yilishining o'zi shundoq ko'rinib turibdiki, inson huquqlarini ta'minlashga katta e'tibor qaratayotganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi talablaridan kelib chiqib 1994-yil 22-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasining jinoyat, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va jinoyat-protsessual kodekslarining qabul qilinishi ham korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslariga qaratilganidir.

Mamlakatimizda mazkur muammoga qarshi kurash masalasiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda. O'tgan davr mobaynida korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza shakllantirildi. Respublikamizda BMT homiyligida qabul qilingan EKOSOS (BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashi)ning Korrupsiyaga qarshi kurash rezolyusiyasi (1995), Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloq kodeksi (1996), Xalqaro tijorat tashkilotlarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash haqidagi deklaratsiya (1997), Millatlararo uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash konvensiyasi (2000) va boshqa xalqaro hujjatlarning qabul qilingani mazkur illatga qarshi kurashda muhim omil vazifasini o'tamoqda.

Shuningdek, davlatimiz 2010-yil mart oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga (2003-yil 10-sentyabr) qo'shilgan. Oliy Majlis tomonidan esa Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Evroosiyo guruhi to'g'risidagi bitimi (Moskva, 2011-yil 16-iyun) 2011-yil 13-dekabrda ratifikatsiya qilindi.

BMT oldida turgan eng global muammolardan biri sanalgan korrupsiyaga qarshi kurashning davlatlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan dasturlari va boshqa huquqiy me'yorlari ishlab chiqilgan. Xususan, 2005-yil dekabr oyida kuchga kirgan «Korrupsiyaga qarshi» konvensiya keng

doirada qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjat bo‘lib, uning loyihasi ikki yil davomida 130dan ortiq davlat ishtirokida muhokama etilgan. Unda korrupsiyaga qarshi xalqaro va milliy kurash amaliyotini yo‘lga qo‘yish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilangan.

Bu illatga qarshi kurashni jahon talablari asosida shakllantirish maqsadida, 2008-yil 7-iyulda mamlakatimiz BMTning «Korrupsiyaga qarshi» (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) konvensiyasini ratifikatsiya qildi va shu yili «Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Korrupsiyaga qarshi» konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilishi to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu konvensiya talablari korrupsiyaga oid milliy qonunchilikni yana bir bor tahlil etish, zarur huquqiy me‘yorlarni qabul qilish va shu orqali korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, ushbu qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa ishtirokchi davlatlarga yordam ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan organlar sifatida belgilandi.

Shu o‘rinda aytish lozimki, O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2014-yil 14-may qonunining qabul qilinishi munosabati bilan mamlakatimizda qonuniylik va huquqtartibotni ta‘minlash sohasida huquqbuzarliklar profilaktikasining ustuvorligi e‘tirof etilganligi barobarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning profilaktikasi ham aynan ushbu turdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvar kuni qabul qilingan «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonuni bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning bir ko‘rinishidir. Ushbu qonuning 7-moddasiga ko‘ra Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi deb belgilanganligi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi PQ-2752-son «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori aynan to‘g‘ridan-to‘g‘ri huquqiy asosi hisoblandi. Chunki ushbu qarorda «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qoidalarining samarali ijrosini ta’minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida: *birinchidan*, 2017-2018-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi tasdiqlangan; *ikkinchidan*, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi tuzildi; *uchinchidan*, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-son «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorini ham kiritishimiz lozim.

3-MAVZU. ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR TAHLILI

Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan sodir etiladigan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning ko‘rinishlari

Zararli hodisa hisoblangan korrupsiya katta va kichik, iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanmagan barcha mamlakatlarda uchraydi, lekin, rivojlanayotgan davlatlarga eng halokatli ta’sir ko‘rsatadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashda keskin samarali choralar ko‘rilmasligi uning jinoiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammodan siyosiy muammoga aylanishiga, mamlakat konstitutsiyaviy tuzumining asoslariga putur etkazuvchi milliy ofat miqyosiga ko‘tarilishiga olib keladi.

Davlat korrupsiyaviy daromadga qarshi sa’y-harakatlarni amalga oshiradi. Korrupsiyaning xatarli tomoni shundaki, u kishilarda norozilik kayfiyatini uyg‘otib, jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatga raxna soladi va ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqaradi. Korrupsiyaning taraqqiyot uchun yana xatarli joyi shundaki, poraxo‘rlar qo‘lidagi «yashirin» pul investitsiya uchun xizmat qilmaydi. Bu aholi qo‘lidagi pul qoldig‘ini ko‘paytiradi va bu bilan pul muomalasiga tahdid solinadi. Ma’lumki, pul oqimi iqtisodiyot uchun oziqadir, uni to‘xtovsiz borishi iqtisodiy o‘shishning muhim sharti hisoblanadi. Muomaladagi pulning etishmasligi iqtisodiy oborotni sekinlashtiradi, monetar xavfsizlikka tahdid soladi¹.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, korrupsiyani zaiflashtirmasdan, uning yo‘liga to‘siq qo‘ymasdan turib taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Korrupsiyaga qarshi kurash aholining ma’naviyati darajasi va axloq-odobiga, demokratik prinsiplarga sodiqligiga bevosita bog‘liq.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahbar shaxsiy namunasining ulkan ahamiyati haqida so‘z yuritib, shunday deb ta’kidlaydi: «Axir, lavozim kishiga kibru havo, boylik to‘plash va kayfu safo uchun berilmaydiku! Aksincha, u yuksak mas’uliyatni, hayotning butun rohat-farog‘atidan kechishni, kerak bo‘lib qolganda o‘zidan kechishni talab qiladi.

¹ *Икромов Ш.Т., Қобилов Ш.Р.* Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларида коррупцияга қарши маърифатни юксалтириш. Коррупцияга қарши курашнинг долзарб масалалари: Илмий мақолалар тўплами / Масъул муҳаррир Ш.Т.Икромов. – Т., 2015. – Б.147.

Bunday qarash odatga aylanishi, hayotimizga singib ketishi kerak»¹. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida «Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak» deb rahbarning oldidagi ma‘suliyatini belgilab berganligini ko‘rishimiz mumkin. Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning: «Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo‘lsin!» degan chuqur ma‘noli so‘zlari har birimiz uchun hayotiy e‘tiqodga aylanishi zarur.

Ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyati doimo jamoatchilikning diqqat-e‘tiborida. Ular xulq-atvorining ma‘naviy-axloqiy tarkibi xizmat olib borishning ommaviy xususiyatga ega ekanligi bois muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy madaniyatning huquqiy normalarni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liqligi bois korrupsiyaga qarshi xulq-atvor IIO xodimlari kasbiy xulq-atvorining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi umumiy va maxsus xususiyatga ega turli chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan, korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha vazifalarni davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlari orasida taqsimlashga e‘tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, jinoyatchilik, xususan korrupsiyaga shart-sharoit yaratib beruvchi sabablarni bartaraf etish bo‘yicha umumijtimoiy va maxsus chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xodim shaxsdagi vatanparvarlik, faol fuqarolik nuqtai nazari, o‘z xalqiga sodiqlik, halollik, talabchanlik, insoniylik, o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish, maqsadga intiluvchanlik, o‘z kasbiy ko‘nikmalarini oshirishga intilish kabi shaxsiy sifatlar har qanday korrupsion ko‘rinishlarga qarshi ishonchli to‘siq bo‘lib xizmat qiladi.

O‘z faoliyatda bir marta bo‘lsa-da, korrupsion xatti-harakatga yo‘l qo‘ygan xodim kasbiy va axloqiy jihatdan buzilgan hisoblanadi. Bu, o‘z kasbiga suiqasd qilish, shaxsiy manfaatlarini xizmat manfaatlaridan yuqori, ya‘ni qonuniylik va axloq qoidalardan yuqori qo‘yish degan ma‘noni bildiradi. Xodimning korrupsion munosabatda ishtirok etishi bilan bog‘liq har qanday holat uni ichki ishlar organlarida xizmat

¹ *Каримов И.А.* Адолат, Ватан ва халқ манфаати ҳар нарсадан улуғ // Биз келажа-гимизни ўз кўлимиз билан қурамыз. Т.7. – Т., 1999. – Б.216-217.

qilishga noloyiqligi to'g'risida xulosa chiqarishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, ularning bunday qilmishlari qonun tomonidan qattiq jazolanadi. Korrupsion xulq-atvor to'liq shakllanmagan ma'naviy xislatlar past huquqiy va kasbiy madaniyatga egalikdan dalolatdir.

O'z shaxsiy manfaatlari «quli»ga aylangan, ularni davlat va jamiyat manfaatlaridan yuqori qo'ygan xodim, shubhasiz, korrupsiyaning engil o'ljasiga aylanadi. Ma'naviy dunyosi chegaralangan odamlar ertami-kechmi axloqiy tubanlikka yuz tutadilar. Aynan shunday muhit korrupsiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi hech kimga sir emas. Bejizga xalqimiz «Odam bo'lish asta-asta, hayvon bo'lish bir pasda», deb aytmagan.

Buyruqlar, nizomlarning qat'iy talablari mavjud, ammo inson munosabatlari bilan bog'liq nozik soha borki, uni qonun-qoida doirasiga solib bo'lmaydi. Fuqarolar tinchligini, ularning osoyishta hayot kechirish huquqini ta'minlovchi ichki ishlar organlari ulkan jamoasi mehnatiga bitta noqonuniy harakat, bitta tamagirlik holati bilan raxna solinishi mumkin. Shu bois, har bir xodim ustiga huquq-tartibot va qonuniylik qo'riqchisi libosini kiyar ekan, unga yuklatilgan mas'uliyat darajasini teran anglashi zarur. Xodim uchun kasbiy muhim axloqiy va ma'naviy sifatlari ko'pgina normativ hujjatlarda o'z aksini topgan.

Xalqimizda «Nima eksang, shuni o'rasan», «Qing'ir ishning qiyig'i qirq yilda ham chiqadi» degan maqollar bor. Mazkur hikmatlarning ma'nosi har qanday yovuz ishni xalq nigohidan yashirib bo'lmaydi, deganidir. Agar bugun bo'lmasa, ertaga sharmanda bo'lish, bir kunning o'zida yillar davomida orttirilgan hurmat-e'tibor va misqolab to'plangan obro'ni yo'qotish mumkin. Har qanday pora-xo'rlik, tamagirlik holati izsiz bo'lmaydi, chunki biz zamon bilan hamnafas huquqiy davlatda yashamoqdamiz, o'z hayotini bu salbiy holatlarga murosasizlik ruhida qurayotgan aholining huquqiy ongi o'zgarmoqda, huquqiy madaniyati, siyosiy faolligi ortmoqda.

Ichki ishlar xodimi ko'p hollarda jabrlanuvchi yoki huquqbuzar duch keladigan davlat hokimiyatining birinchi vakili hisoblanadi. U birinchi bo'lib jamiyatga zid qilmishga baho beradi va davlat nomidan qonun talablarini bajargan holda jamoat tartibini buzuvchilarga majburlov choralarini qo'llaydi. Aynan shu bois har qanday korrupsiya hodisasi huquq-tartibot organlari tizimida alohida xavf-xatarni yuzaga keltiradi, aholi orasida ishonchsizlik, davlat hokimiyati institutlariga ishonmaslikni yuzaga keltirib, jamiyatni axloqsizlikka o'rgatadi va iqtisodiy jihatdan zaiflashtiradi.

Korrupsiyaviy jinoyatlar deganda, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan hokimiyat boshqaruv organlarining obro'siga bevosita tajovuz qiladigan, mansabdor shaxslar yoki xizmatchilar tomonidan qasddan sodir etiladigan, qonunga xilof ravishda boylik yoki boshqa manfaatlarni orttirishga yoxud bunday manfaatlarni taqdim etishga qaratilgan ijtimoiy xavfli qilmishlarni tushunish mumkin. Shu bois, korrupsiya jinoyatlarining sub'ektlari jinoyat qonunida javobgarlikka tortish yoshiga to'lgan mansabdor yoki mas'ul mansabdor shaxslar, shuningdek, davlat organi, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasa yoki tashkilotning, jamoat birlashmasi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining mansabdor shaxsi bo'lmagan xizmatchilari hamda ularni haq evaziga og'dirgan har qanday shaxs bo'lishi mumkin.

Jinoyat huquqida «korrupsiya» iborasi davlat idoralarida ishlaydigan mansabdor shaxslarning yoki davlat xizmatchilarining uyushgan guruh, shuningdek, boshqa jinoyatchi shaxslar bilan o'zaro til biriktirib, jinoyat sodir etishi yoki ularni jinoyat sodir etish uchun sharoit yaratib berishini anglatadi.

Shu sababli korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni o'rganish uchun bir qator mansabdorlik jinoyatlarini hamda mansabdor shaxslarning xizmat sohalari tahlil qilish lozim bo'ladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan sodir etiladigan korrupsiyaga oid jinoyatlarning ko'rinishlari:

korrupsiya o'zida bir necha jinoyatlarni mujassamlashtiradi. Korrupsiya mansabdor shaxslar tomonidan davlat hokimiyati yoki boshqaruv vakolatlaridan foydalangan holda shaxsiy manfaatlarni yoki boshqa shaxslar manfaatini ko'zlab sodir etiladigan jinoyatlar yig'indisidir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida javobgarlik belgilangan quyidagi ijtimoiy xavfli qilmishlar korrupsiyaviy jinoyatlar hisoblanadi:

1) JK 167-modda. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish;

2) JK 171-modda. Jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish;

3) JK 184¹-modda. Byudjet intizomini buzish;

4) JK 205-modda. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish;

5) JK 206-modda. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish;

6) JK 208-modda. Hokimiyat harakatsizligi;

7) JK 210-modda. Pora olish;

8) JK 211-modda. Pora berish;

- 9) JK 212-modda. Pora olish-berishda vositachilik qilish;
- 10) JK 213-modda. Xizmatchini pora evaziga og‘dirish;
- 11) JK 214-modda. Tovlamachilik yo‘li bilan haq berishni talab qilish;
- 12) JK 235-modda. Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayri-insoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash;
- 13) JK 236-modda. Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish;
- 14) JK 238-modda. Yolg‘on guvohlik berish (2-qismi);
- 15) JK 243-modda. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legal-lashtirish;
- 16) JK 301-modda. Hokimiyatni suiiste‘mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi.

Korrupsiya jinoyatlari uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddalari ro‘yxati JK turli boblaridagi qilmishlar tarkibi bilan qamrab olinishini ko‘rsatadi.

Jinoyat-huquqiy nuqtai nazardan oladigan bo‘lsak, korrupsiyani jamiyatimizda mavjud barcha sohalarda uchratish mumkin. Shu sababli, qaysi sohada korrupsiya bilan bog‘liq qilmishlar aniqlansa, ya‘ni mansabdor shaxsning jinoyatchilar bilan til biriktirgani aniqlansa, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining shu qilmishlar uchun javobgarlik o‘rnatuvchi normalari bilan uni sodir etgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Agar davlat boshqaruvi sohasida korrupsiya aniqlangan bo‘lsa, davlat idorasida boshqaruvni amalga oshirayotgan shaxs mansab vakolatini suiiste‘mol qilish, mansab soxtakorligi, pora olish va boshqa bir qator moddalar bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Sud-huquq sohasida korrupsiya hodisasi aniqlansa, hokimiyat vakillari hisoblanmish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudyalalar sodir etgan qilmishi xususiyatidan kelib chiqib aybsiz kishini jinoiy javobgarlikka tortish, adolatsiz hukm chiqarish, tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish va boshqa moddalar bilan qo‘shimcha jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan sodir etiladigan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning ahvoli, darajasi, tuzilishi va dinamikasi bo‘yicha tahlili

Xodim tomonidan axloqiy majburiyatlarning bekamu ko‘st bajari-lishi uning jamoada ishonch, hurmat-e‘tibor, e‘tirof va fuqarolarning ko‘magiga erishishga zamin yaratadi.

Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar odatda ikki toifa shaxslar ishtirokida sodir etiladi, ya’ni bir tomondan mansabdor shaxs yoki davlat xizmatchisi, ikkinchi tomondan jinoyat sodir etish niyatida yurgan shaxslar bilan kelishib sodir etiladi. Bunda mansabdor shaxs yoki davlat xizmatchisi egallab turgan lavozimi bilan bog‘liq qandaydir harakatlarni sodir etish yoki sodir etmaslik evaziga ikkinchi tomondan (jinoyatchi shaxslardan) moddiy yo‘sindagi manfaatlar olishi kuzatiladi .

Bunday guruhlar ma’lum bir davlat yoki mulkchilikning boshqa shaklidagi korxonalar, tashkilot yoki muassasalarda ishlaydigan nopok shaxslarning o‘zaro kelishuvi asosida tuziladi. Odatda, guruhga yo‘l-boshchilik qilish shu tashkilotlarda rahbarlik lavozimlarini egallab turgan shaxslar zimmasiga tushadi. Bu turdagi uyushgan guruhning asosiy jinoiy faoliyati korxonalar yoki boshqa jamoat tashkilotlarida turli-tuman noqonuniy xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirish, g‘ayriqonuniy oldi-sotdi harakatlarini bajarish va shu yo‘l bilan katta moddiy boyliklarni qo‘lga kiritishdan iborat. Bunday harakatlar mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatiga jiddiy moddiy zarar etkazadi, uni izdan chiqaradi va iqtisodiyotning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Shuningdek, xo‘jalik faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishning me‘yorlarini buzib yuboradi.

Davlat va siyosiy arboblarning, jamoat tashkilotlari rahbarlari va mansabdor shaxslarning g‘arazli maqsad yo‘lida yoki tor shaxsiy manfaatni ko‘zlab sotilishi, pul va mulk evaziga ularning mulkdorning, nopok guruhlarining qonunga zid bo‘lgan talablarini bajarishi ham korrupsiyani mavjudligidan dalolat beradi va bu kabi korrupsion harakat zahirida pora berish, pora olish, mansab soxtakorligi, firibgarlik, mansabni suiiste‘mol qilish, qo‘rqitish, tovlamachilik va boshqa jinoyatlar sodir etilishi mumkin .

Korrupsiyaga uyushgan guruhlar aralashgan holatlarda esa, jinoiy faoliyati yo‘lida to‘siq bo‘lgan deyarli barcha omillarni – mansab, unvon va boshqalarni sotib olish, mansabdor shaxslarni jinoyat sodir etishga jalb qilish uchun pora berish, ba‘zan zo‘rlik ishlatish yoki qo‘rqitish yo‘li bilan ularga ta’sir etishi kuzatiladi. Shu sababli, mansabdor shaxslarni jinoiy guruhlar bilan jinoiy-korrupsion aloqasi natijasida asosan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar ko‘proq sodir qilinadi.

Jinoyat qonunida bevosita korrupsiya uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi aniq modda yo‘q. Lekin O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining ayrim moddalarida mansabdor shaxslarning korrupsiya bilan bog‘liq harakatlari uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Shu sababli korrupsiya bilan shug‘ullangan mansabdor shaxslarning qilmishi

Jinoyat kodeksining tegishli moddasi, ya'ni jinoiy harakatlari uchun jinoiy javobgarlikni ko'zda tutuvchi moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Jumladan, mansabdor shaxs o'z mansab lavozimidan foydalanib jinoyatchilarga yordam berib, evaziga pora olsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining 210 moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Ushbu holatda qilmishni korrupsiya bilan bog'liq jinoyat deb huquqiy baholash uchun mansabdor shaxs boshqa jinoyatchi shaxslar bilan jinoiy til biriktirib o'z mansabini suiiste'mol qilgan bo'lishi, o'ziga berilgan vakolatdan foydalanib pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab harakat qilganligini isbotlash talab etiladi. Agar uning mansabini suiiste'mol qilishi natijasida, ya'ni mansabdor shaxsning o'z mansab vakolatidan qasddan foydalanishi fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon etkazilishiga sabab bo'lsa, uning qilmishi qo'shimcha Jinoyat kodeksining 205-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Mansabdor shaxsning bu kabi harakatlari jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga to'g'ridan-to'g'ri tahdid solish bilan birga, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir etadi, davlatning konstitutsiyaviy asoslari emirilishiga va fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi, jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini izdan chiqarib, hokimiyat organlarining jinoyatga aralashib qolishini kuchaytiradi, bozorlarni monopollashtirishga va nopok g'ayriqonuniy yo'llar bilan topilgan pullarni xo'jalik va tijorat tuzilmalari orqali yuvilishiga olib keladi.

Shuning uchun mansabdor shaxs va jinoyatchi shaxs o'rtasidagi munosabatlarni, agar u jinoyat sodir etish yoki boshqacha yo'llar bilan qonunni buzishga qaratilgan bo'lsa albatta korrupsiya kabi kvalifikatsiya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining «Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga oid ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ba'zi masalalar to'g'risida»gi qarori tergov organlari va sud zimmasiga korrupsiya jinoyatchiligiga olib keluvchi sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf qilish choralarini ko'rish vazifalarini yuklaydi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga suyanib, korrupsiya jinoyatchiligini keltirib chiqaradigan sabablariga quyidagilarni kiritish mumkin: uyushgan jinoyatchilikning mavjudligi, qonunchilikdagi ayrim kamchiliklar, xufiyona iqtisodiyotning mavjudligi, huquqni muhofaza qilish, soliq va boshqa davlat organlaridagi ayrim xodimlarning ma'naviy rivojlanishda orqada qolganligi va boshqalar.

Ichki ishlar organlarida xodimlar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish joyi, vaqti, usuli va vositalari

Ushbu savolni yoritishda biz quyidagi amaliy misollar orqali ko‘rib chiqamiz:

– Sobiq xodim B. M.Ulug‘bek tumani IIB JQB tezkor vakili lavozimida ishlab kelib, M. va boshqalar bilan o‘zaro jinoiy til biriktirib, fuqaro R.ning avtomashinasigaigiyohvandlik vositasini tashlab, uni jinoiy javobgarlikka tormaslik evaziga tovlamachilik bilan pul talab qilishni rejalashtirib, M. tezkor vakil B. tomonidan noma‘lum shaxsdan olingan «marixuana» giyohvandlik moddasini 2017yil 14 yanvar kuni R.ning boshqaruvidagi avtomashinaga B.ning ko‘rsatmasiga asosan tashlab ketib, bu haqda B.ga xabar berib, so‘ng B. bu haqda viloyat IIB YHXB 1-otryad YPX katta inspektori O‘.ni xabardor qilib, uning yordamida R.ning egnidagi kiyimlarini giyohvandlik vositalari mavjud degan gumon ostida asossiz ravishda tintuv o‘tkazib, mansab vakolatlaridan chetga chiqib, R.ning yonidan va avtomashinasidan giyohvandlik vositalarini topa olishmagach, M.Ulug‘bek tumani IIBga olib kelishib, giyohvandlik vositalarini iste‘mol qilib yurish mazmunida yozilgan tushuntirish xatiga tazyiq ostida imzo qo‘ydirishib, uni ozodlikdan mahrum qilish va avtomashinasini davlat foydasiga musodara qilishlik bilan qo‘rqitib, ushbu holatni sir saqlab, chora ko‘rmaslik evaziga 1000 AQSh dollari berishni talab qilib, ushbu pullarni olib kelishi uchun bir soat vaqt berib yuborib, shu kuni O‘. fuqaro R.dan 200 AQSh dollari olayotgan vaqtida tezkor tadbir ishtirokchilari davomida ushlangan (*Sud tomonidan JK 165-m.2-q., «v» bandi va 206-m, 1-q. bilan aybdor deb topilgan*);

– Sobiq xodim K. M.Ulug‘bek tumani IIB HPB 74-sonli TP profilaktika inspektori lavozimida ishlab kelib, A.Qaxxorov MFY posboni S. va Dilkusho MFY posboni A.ni oldindan taniganligi va uning ko‘rsatmasini hech ikkilanmasdan bajarishlarini bilgani holda ulardan xolis sifatida foydalanib V.va va Sh.ning hech kim yashamaydigan uyiga birgalikda kelib, pul evaziga jinsiy munosabatda bo‘lganliklari, ya‘ni V.va Sh. ni fohishalik bilan shug‘ullanishda ayblab, uning yonidan 10.000 so‘mlik pul mablag‘larini «ashyoviy dalil» sifatida olib, V.va Sh.ni oila a‘zolarini chaqirish orqali sharmanda qilish bilan qo‘rqitib, V.va bilan Sh.dan pul evaziga jinsiy munosabatga kirishganlik xususida tushuntirish xatlari yozdirib olgan.

K. Sh.ni bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘z oila a‘zolaridan sir saqlashga harakat qilayotganligi va uni oshkor etilishidan qo‘rqayotganligidan foy-

dalanib, «o‘z xizmatlari evaziga» Sh.dan 1.500.000 so‘m berishini talab qilib, 2017-yil 14-mart kuni o‘zining tug‘ilgan kuni munosabati bilan kafeda qilingan 800.000 so‘mlik xarajatining 400.000 so‘mini Sh.ga to‘latib, kelishilgan summadan qolgan 1.100.000 so‘mni 2017yil 24 mart kuni olib, qarindoshi M.ga bergan vaqtda ushlangan (*Sud tomonidan JK 165-m.1-q., 205-m, 1-q., 209-m, 1-q. bilan aybdor deb topilgan*);

– Sobiq xodim G‘. M.Ulug‘bek tumani IIB HPB 4-sonli TP profilaktika inspektori lavozimida ishlab kelib, o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda, sodir etishi lozim bo‘lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi evaziga, qonunga xilof ekanligini bila turib, mulkiy naf ko‘rish maqsadida, M.Ulug‘bek tumani Dilkusho ko‘chasi, 29-uy 14-xonadonda ro‘yxatdan o‘tmasdan yashab kelayotgan fuqaro O.ga eng kam ish haqining uch baravari miqdorida, jarima jazosiga tormaslik evaziga 150.000 so‘m berishini aytib, 2017-yil 4-may kuni undan 50.000 so‘m pulni olib, qolgan 100.000 so‘m pulni 2017-yil 5-may kuni M.Ulug‘bek tumani Dilkusho ko‘chasi, 26-uyda joylashgan M.Ulug‘bek tumani IIB 4-sonli ichki ishlar bo‘limi ma‘muriy binosi oldida pora tariqasida olgan vaqtda ushlangan (*Sud tomonidan JK 210-m.1-q. bilan aybdor deb topilgan*).

Yuqoridagi amaliy misollardan ko‘rinib turibdiki, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etish joyi, vaqti, usuli va vositalari bir biridan farqli bo‘lsa-da, lekin juda ham o‘xshashligini ko‘rishimiz mumkin.

Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vazifasi jamiyatda korrupsiyani keskin qoralash muhitini yaratishdan iborat. O‘zbekistonda mazkur vazifani amalga oshirish aholi ma‘naviyati va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, davlat xizmatlarini amalga oshirish jarayonlarining maksimal shaffofligiga erishish, shuningdek, joylardagi barcha davlat va mahalliy hokimiyat organlarida doimiy profilaktik ishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Bunda aynan huquqiy vositalar korrupsiyaga qarshi kurashda real amaliy yordam ko‘rsatishi mumkin. Qonunlar jamiyatdagi barcha sog‘lom kuchlarni birlashtiruvchi vosita bo‘lib, fuqarolik jamiyati institutlari va aholining davlat organlari faoliyatini nazorat qilish bo‘yicha ishini faollashtirish orqali keng ko‘lamda korrupsiyaga qarshi kurashda ishtirok etish imkonini beradi.

Mamlakatning huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan korrupsiyaviy xarakterga ega huquqbuzarliklarni aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlar amalga oshirilmogda. Bunda asosiy e‘tibor korrupsiyani yuzaga keltiruvchi sharoitlarni

aniqlash va bartaraf qilish hamda ko‘rilayotgan choralar uchun davlat organlari javobgarligini oshirishga qaratilmoqda.

Ichki ishlar organlarida xodimlar tomonidan korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etilishida xizmatni endi boshlagan va uzoq muddatlardan beri xizmat qilayotganlar tomonidan sodir etilayotganni ko‘rishimiz mumkin.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan ichki ishlar organlari korrupsiyaga qarshi kurashda quyidagi tamoyillarga asoslanadilar:

- korrupsiyaning oldini olish choralari va korrupsiyaga qarshi kurashda ma’naviy-axloqiy asosda yondashishning ustuvorligi;

- boshqaruv apparatining optimal miqdorini saqlab turish;

- korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning yuqori darajada ijtimoiy xavfli ekanligini tan olish;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan holatlardan tashqari, javobgarlikni cheklaydigan yoki tegishli shaxslarni javobgarlikka tortishni murakkablashtiruvchi imtiyoz va ustunliklarni o‘rnatishga yo‘l qo‘ymaslik;

- sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrar ekanligi.

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar, chunonchi ichki ishlar organlarining korrupsiyaga qarshi samarali kurashishga oid chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- olib borilayotgan aksilkorrupsiyaviy ta’lim va tarbiya ishini yanada jadallashtirish va ta’sirchanligini ta’minlash;

- O‘zbekiston Respublikasi IIV huquqiy hujjatlarini aksilkorrupsiyaviy ekspertizadan o‘tkazish;

- korrupsiyaviy huquqbuzarliklar va ularning alohida ko‘rinishlarini monitoring qilish;

- xizmatga qabul qilinayotgan shaxslarga yuqori ma’naviy-axloqiy va kasbiy talablarni qo‘yish;

- o‘z majburiyatlarini uzoq muddat nuqsonsiz bajarib kelayotgan, xizmat burchini halol va sadoqat bilan ado etayotgan xodimlarni muntazam rag‘batlantirib borish va xalq, Vatan ravnaqi yo‘lida fidoyi insonlar hayoti to‘g‘risida ocherklar va teleko‘rsatuvlar tayyorlash;

- jamoatchilik fikrini hisobga olgan holda ichki ishlar organlari faoliyatini yanada yaxshilashga erishish;

- korrupsiyaga qarshi kurash masalalarida ichki ishlar organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmini yanada takomillashtirish;

Xulosa o'rnida qayd etish joizki, korrupsiyaviy yo'nalishdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish umumxalq ishi. Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan ichki ishlar organlari va ular tarkibidagi tegishli xizmatlar korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy sub'ektlari hisoblanadilar. Bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- huquqqa zid maqsadlarni ko'zlaydigan shaxslarning ichki ishlar organlariga kirib qolishlarining oldini olish;
- ichki ishlar xodimlari va ularning yaqinlarini xizmat vazifalarini bajarishlari bilan bog'liq holda hayotiga, sog'lig'iga, mulkiga qarshi noqonuniy tajovuzlardan davlat himoyasini tashkil etish;
- ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jinoyatlar sodir etilishiga yordam beradigan sabablar va sharoitlarni aniqlash.

4-MAVZU. ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KORRUPSIYANING SABABLARI VA SODIR ETILISHIGA IMKON BERGAN SHART-SHAROITLAR

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda samarali natijalarga erishish, ularning miqdorini kamaytirish, salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun ularning jamiyatda mavjudligini, rivojlanishini taqozo qiluvchi, belgilab beruvchi, ta'sir qiluvchi, sabablari sifatida harakat qiluvchi hodisalar, voqealar va jarayonlarni, ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish o'rganilishi kerak.

Demak, ijtimoiy salbiy hodisa hisoblangan korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni keltirib chiqaradigan, uning rivojlanishini belgilab beradigan, o'sishiga ta'sir qiladigan sabablar ham ijtimoiydir. Shuni qayd qilib o'tish lozimki yaqin vaqtlarga qadar jinoyatchilikning sabablari sifatida asosan «sotsialistik» jamiyatdan avval paydo bo'lgan va unda vaqtinchalik saqlanib keladigan ijtimoiy hodisalar: «eskilik qoldiqlari», «burjua ideologiyasi», «sotsialistik lager bilan bir qatorda kapitalistik lagerning mavjudligi»¹ va shu kabilar ko'rsatilar edi.

Hozirgi kunga kelib bu nazariyalarning noto'g'ri ekanligi, jinoyatchilik sabablarini tushuntirishga sinfiy nuqtai nazarda yondashilganligini hayot isbotlab berdi. Har qanday jamiyatdagi jinoyatchilikning sabablarini shu jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalaridan izlash kerak ekanligi o'z isbotini topmoqda.

Kriminologiya jinoyatchilikning sabablarini o'rganishda, dialektika nazariyalariga asoslanadi. Avvalambor dialektikadagi sababiyatlar nazariyasiga asoslanib, ya'ni hodisalar, voqealar va jarayonlar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlar haqidagi bilimlarga asoslanib jinoyatchilikning sabablari tushuntirib beriladi.

Dialektikadan bizga ma'lumki, tabiatdagi, koinotdagi va jamiyatdagi barcha voqea, hodisa va jarayonlar bir-biri bilan dunyoviy bog'liqlikda-

¹ *Икромов Ш.Т., Қобилов Ш.Р. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларида коррупцияга қарши маърифатни юксалтириш. Коррупцияга қарши курашнинг долзарб масалалари: Илмий мақолалар тўплами / Масъул муҳаррир Ш.Т.Икромов. – Т., 2015. – Б.147.*

dir. Voqealar, hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlik turli xil shakllarda bo'lib, bu bog'lanishlar juda ham murakkabdir, Shuning uchun ham jinoyatchilikning sabablarini aniqlash, o'rganish va tushuntirib berish uchun bu vazifani bajarayotgan hodisa, voqea va jarayonlar, o'rtasidagi bog'liqliklarni ochib berishimiz, tushuna bilishimiz lozimdir.

Sababiyat bu biri (sabab) ikkinchisini (oqibatni) keltirib chiqaradigan hodisalar o'rtasidagi ob'ektiv bog'liqlikdir. Shuni ta'kidlash muhimki bu erda sababiy bog'lanish ob'ektiv xususiyatga ega bo'lib u kishilar ongida emas balki haqiqiy hayotda mavjuddir, kishilar hodisalarning sababiy bog'liqligini o'z onglarida vujudga keltirmaydi, balki uni biladi (anglaydi). Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, jinoyatchilikning sabablari ham ob'ektiv mavjud, ob'ektiv hayotning elementlaridir, ya'ni ular shu jamiyat ijtimoiy hayotida mavjud bo'lgan hodisa, voqea va jarayonlardan iboratdir.

BMT oldida turgan eng global muammolardan biri sanalgan korrupsiyaga qarshi kurashishning davlatlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan dasturlari va boshqa huquqiy me'yorlari ishlab chiqilgan. Xususan, 2005-yil dekabr oyida kuchga kirgan «Korrupsiyaga qarshi» konvensiya keng doirada qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, uning loyihasi ikki yil davomida 130 dan ortiq davlat ishtirokida muhokama etilgan. Unda korrupsiyaga qarshi xalqaro va milliy kurash amaliyotini yo'lga qo'yish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilangan.

Bu illatga qarshi kurashni jahon talablari asosida shakllantirish maqsadida, 2008-yil 7-iyulda mamlakatimiz BMTning «Korrupsiyaga qarshi» konvensiyasini ratifikatsiya qildi va shu yili «Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Korrupsiyaga qarshi» konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasi qo'shilishi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu konvensiya talablari korrupsiyaga oid milliy qonunchilikni yana bir bor tahlil etish, zarur huquqiy me'yorlarni qabul qilish va shu orqali korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

Ayrim tadqiqotchilar korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini aniqlashda davlat qonunlarining nomukammalligiga urg'u beradilar. Biroq hech qachon va hech qaerda abadiy mukammal qonunlar bo'lmasligiga, odatda qonunlar real hayotdagi o'zgarishlardan orqada qolganligi uchun ham tez-tez o'zgartirilib, to'ldirilib borilishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ayrim olimlar va siyosiy arboblari esa sabab sifatida davlat amaldorlari ish haqining kamligini e'tirof etishadi. To'g'ri, bu ham poraxo'rlikni kuchaytirishi mumkin, biroq birdan-bir sabab sifatida qayd etib bo'l-

maydi. Chunki, ish haqining ozligi quyi tabaqadagi amaldorlarni poraxo'rlikka undashi mumkin, ammo katta miqdorda pora olish yuqori mansabli amaldorlarga xosligini unutmaslik kerak.

Korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarning shakillari: jinoiy, fuqaroviy-huquqiy, ma'muriy, intizomiy huquqbuzarliklarga bo'linadi.

Korrupsiyaning quyidagi asosiy turlarini ajratish mumkin:

- maishiy;
- xizmat bilan bog'liq;
- professional belgisiga ko'ra.

Maishiy korrupsiya – fuqarolarning kundalik hayoti va oilaviy ahvoli bilan bog'liq bo'lib, shaxsiy xayotiy extiyojlar – davolanish, ta'lim olish, dam olish, uy-joyga ega bo'lish, shaxsiy himoya va boshqalar bilan qondirish jarayonida kelib chiqadi.

Xizmat bilan bog'liq korrupsiya – jismoniy va yuridik shaxslarning xo'jalik faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, firmalarni tashkil etish va rivojlantirish extiyojlari, shuningdek ularni davlat bilan, hamda bir-birlari bilan o'zaro aloqalarini qo'yish jarayonlarida kelib chiqadi.

Professional belgisiga ko'ra – bojxona ishlari bilan bog'liq holda turli konkurs, aukcion va tenderlarni o'tkazishda ta'lim tizimida paydo bo'ladi.

Demokratik jamiyatda korrupsiyalashgan uyushgan jinoiy tuzilmalarga qarshi kurash faqat jinoyat-huquqiy ta'qib orqali emas, balki ularning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish, zararsizlantirish, ularga to'sqinlik qilishga qaratilgan kompleks oldini oluvchi chora-tadbirlarni qo'llash orqali olib boriladi. Bunday vazifani amalga oshirish korrupsiyalashgan uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyati va ular sodir etayotgan jinoyatlar, ushbu jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlar haqidagi barcha masalalarni chuqur ilmiy tahlil qilishni, jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalaridagi uni oziqlantirib turuvchi hodisa, voqea va jarayonlarni har tomonlama, chuqur va aniq bilishni talab qiladi.

Korrupsiyalashgan uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyati va ular sodir etayotgan jinoyatlarning determinantlari jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan u yoki bu darajada bevosita yoki bilvosita bog'liqdir. Shuning uchun ham korrupsiyalashgan uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyati va ular sodir etayotgan jinoyatlarning determinantlarini shartli ravishda quyidagi uch guruhga:

- 1) iqtisodiy-ijtimoiy omillar;
- 2) ma'naviy-ruhiy omillar;

3) tashkiliy-boshqaruv va huquqiy omillarga ajratgan holda tahlil qilishga harakat qilamiz.

Kriminologik adabiyot, ommaviy axborot vositalarining materiallarini tahlil qilish va o'tkazilgan tadqiqotlar asosida hozirgi kunda korrupsiyani, shuningdek korrupsiyalashgan uyushgan jinoiy tuzilmalarning faoliyatini oziqlantiruvchi keng tarqalgan omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) ijtimoiy-iqtisodiy omillar: davlat hokimiyati organlarining iqtisodiy sub'ektlar faoliyatiga o'rinsiz aralashishining keng tarqalganligi; soliq va boj to'lovlarini belgilash tizimining takomillashmaganligi; «xufiyona» iqtisodiyotning kengayib borishi; «baho»larning o'sib borishi va pulning qadrsizlanishi; ishsizlik muammosining kuchayib borishi; aholi o'rtasida tabaqalanishning kuchayib borishi; yashash darajasining pasayib ketishi; giyohvandlikning ko'payib borishi;

2) ma'naviy-ruhiy omillar: jamiyatda, ayniqsa davlat boshqaruv tizimida adolatsizlikning mavjudligi; to'rachilik va mahalliychilikning kuchayib borishi; jamiyatda qarindosh-urug'chilik va urug'-aymoqchilikning salbiy tomonlari kuchayib borishi; aholi ayrim qismining tafakkurida manqurtlik (tobelik) xislatlarining saqlanib kelayotganligi; aholi, ayniqsa yoshlarning o'rtasida loqaydlik, boqimandalik, tekinxo'rlik kabi xislatlarning keng tarqalib borishi; aholining, ayniqsa, yoshlarning muayyan qismi o'rtasida g'arazgo'ylik xislatlarining kuchayib borishi; jamiyatda zo'rlikni, axloqsizlikni va jinoiy yo'llar bilan orttirilgan boylik hisobiga «dabdabali» hayot kechirishni targ'ib-tashviq qiluvchi manbalarining keng ko'lamda yoyilishi; aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining past darajadali va h.k.;

3) tashkiliy va boshqaruv sohalaridagi omillar: hokimiyat institutlari faoliyatining samarasizligi; huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosan davlat manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilganligi; uyushgan va korrupsiyaviy jinoyatchilikning ustidan ijtimoiy-huquqiy nazoratni tashkil qilish va amalga oshirishni tartibga soluvchi huquqiy asoslarning etarli emasligi hamda bu sohada huquqiy tizimning takomillashmaganligi; huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatidagi suiiste'molliklar; uyushgan va korrupsiyaviy jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishning hal etilmaganligi hamda ular funksiyalari chegaralarining aniq belgilanmaganligi; davlat xizmatini tashkil etish va nazorat qilish tizimining takomillashmaganligi hamda qonun darajasida huquqiy tartibga solinmaganligi; iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida huquqni muhofaza qilish

organlari faoliyatini asoslanmagan holda cheklashlarning mavjudligi; iqtisodiy sub'ektlarning moliyaviy va xo'jalik faoliyatiga davlatning, ayniqsa mahalliy davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilayotganligi; fuqarolik jamiyatining kuchsizligi; demokratik an'analarning rivojlanmaganligi; sud tizimi faoliyatining sustligi.

Ichki ishlar organlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash yo'llari va usullari

Demokratik qadriyatlar qaror topib borayotgan sharoitda davlat xizmatchilari tomonidan mansab mavqeini suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, mulkni talon-toroj qilish hollari davlat hokimiyatining obro'sizlanishiga olib keladi; boshqaruv tizimining buzilishiga yoki zararlanishiga sabab bo'ladi; davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur etkazadi. Yuqori darajadagi korrupsiya davlatni inqirozga olib keladi; davlat hokimiyati shaxsiy manfaatlarga bo'ysundirilgani bois, xalqning noroziligiga sabab bo'ladi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy choralari bo'lmish huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirishni, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonun va huquqqa bo'lgan ijobiy munosabatga etishish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sabablari kelib chiqishi bo'yicha asosiy va asosiy bo'lmagan sabablarga bo'linadi;

Asosiy sabablar jamiyat rivojlanishining har qanday bosqichida ham jinoyatchilikning ob'ektiv qonuniy hodisa sifatida mavjud bo'lishini taqozo qiluvchi, belgilab beruvchi hodisa, voqea va jarayonlar yig'indisidir.

Bunday sabablarga misol qilib ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi, jamoat manfaati bilan shaxsiy manfaat o'rtasidagi, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o'rtasidagi va shunga o'xshash jamiyat rivojlanishining ob'ektiv qonunlariga asosan har qanday jamiyatda, uning barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni salbiy tomonlarini keltirishimiz mumkin.

Asosiy bo'lmagan sabablar deb, jamiyat rivojlanishining ma'lum bir bosqichida paydo bo'lgan, vaqtinchalik va o'tkinchilik xususiyatiga ega bo'lgan hamda jinoyatchilikning bu bosqichda, shu darajada bo'lishini taqozo qiluvchi, belgilab beruvchi voqea, hodisa va jarayonlar yig'indisi tushuniladi. Asosiy bo'lmagan sabablarga misol qilib hozirgi vaqtda

tashkiliy-boshqaruv sohasidagi yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarni keltirishimiz mumkin.

Shuni qayd etishimiz lozimki, korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning asosiy sabablari uning asosiy bo‘lmagan sabablarini keltirib chiqarsa, asosiy bo‘lmagan sabablar esa o‘z vaqtida asosiy bo‘lgan sabablarni kuchaytiradi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning sabab va sharoitlarini mazmuni bo‘yicha tasniflash ham muhim amaliy ahamiyatga egadir. Mazmuni bo‘yicha iqtisodiy (oylik maoshining etarli emasligi), siyosiy (amaldagi konstitutsion tuzumga dushmanlik munosabati, hokimiyatga konstitutsiyaga xilof yo‘llar bilan talashish), g‘oyaviy (ommaviy axborot vositalarida, g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlardagi yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar), ijtimoiy-ruhiy (ayrim jamiyat a‘zolarida shaxsiyatparastlik, g‘arazgo‘ylik, manfaatparastlik qarashlarining mavjudligi), tashkiliy-boshqaruv (iqtisodni boshqarishda, xo‘jalik yuritishda yo‘l qo‘yilayotgan xatolar, nazoratni amalga oshiruvchi organlar, huquqni muhofaza etuvchi organlar faoliyatidagi xato va kamchiliklar, boshqaruv idoralari xodimlarining kishilar bilan bo‘lgan rasmiy buyruqbozlik munosabati), huquqiy (qonunchilikdagi mavjud kamchiliklar, ayrim turdagi munosabatlarni tartibga soladigan qonunlarning yo‘qligi) sabab va sharoitlariga ajratishimiz mumkin.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning barcha sabab va sharoitlari kishilar psixologiyasida va ongida ko‘rinib, ular jamiyatga zid yo‘nalishni, qarashlarni, harakatlarni shakllantiradi yoki ularni kuchaytiradi, jonlantiradi. Shuning uchun ham korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sabab va sharoitlari hamma vaqt ijtimoiy psixologik xususiyatga ega. Ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlar ijtimoiy sharoitlardan kelib chiqqan bo‘lib ma’lum bir darajada mustaqildir. Jamiyatda jinoyatchilikning ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlarini ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mavjud bo‘lgan asosan salbiy hodisalar, voqealar, jarayonlar keltirib chiqaradi. Har qanday jamiyatda, uning rivojlanishining barcha bosqichlarida ham ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlarni keltirib chiqaradigan ob’ektiv va sub’ektiv sabab va sharoitlar mavjud bo‘ladi, lekin ular turli darajada bo‘ladi. Hozirgi vaqtda sodir qilinayotgan jinoyatlarning asosida yotgan jamiyatga zid qarashlar, odatlar, niyatlar, ko‘nikmalar asosan 70-80-yillarda jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida ommaviy ravishda keng tarqalgan salbiy hodisa, voqea va jarayonlar ta’sirida yana ham kuchaydi.

Kriminologiyada har qanday muayyan jinoyat sodir qilinishining asosida yotgan ijtimoiy-psixologik hodisalar, ya’ni jamiyatga zid qarash-

lar, odatlar, ko‘nikmalar, niyatlar sub’ektiv sabab va sharoitlar deb ataladi. Shaxsdan tashqarida bo‘lgan va uning psixologiyasiga ta’sir qilib unda jamiyatga zid yo‘nalishni, qarashlarni, odatlarni shakllantiradigan, uni mustahkamlaydigan hodisalar, voqealar, jarayonlar esa ob’ektiv sabab va sharoitlar deb ataladi. Falsafada esa jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini ob’ektiv va sub’ektiv sabab va sharoitlarga bo‘lish boshqacharoq talqin qilinadi. Bunda ob’ektiv sabab va sharoitlar deb odamlar irodasi va ongi bilan bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lgan sabab va sharoitlar hisoblanadi. Sub’ektiv sabab va sharoitlar deb esa odamlar faoliyati bilan bog‘liq holda, ya’ni ular faoliyatida yo‘l qo‘yilgan xatolar, kamchiliklar natijasida vujudga kelgan sabab va sharoitlar tushuniladi. Jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida ob’ektiv va sub’ektiv sabab va sharoitlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ob’ektiv sabab va sharoitlarning kuchayib borishi o‘z vaqtida yangi-yangi sub’ektiv sabab va sharoitlarni keltirib chiqaradi yoki sub’ektiv sabab va sharoitlarning kuchayib borishi ob’ektiv sabab va sharoitlarning yana ham kuchayishiga olib keladi. Ob’ektiv sabab, sharoitlarni kamaytirish o‘z vaqtida sub’ektiv sabab va sharoitlarni bartaraf qilish uchun imkoniyat tug‘diradi yoki sub’ektiv sabab va sharoitlarni kamaytirish ob’ektiv sabab va sharoitlarni bartaraf qilishga, ularning ta’sirini kuchsizlantirishga imkoniyat yaratib beradi.

Bundan tashqari jinoyatchilik sabab va sharoitlari vaqt va tarqalish maydoni nuqtai nazardan davlatning barcha mintaqasida, alohida olingan mintaqada, qishloq va shahar joylarda, doimiy va vaqtincha harakat qiluvchi sabab va sharoitlarga bo‘linadi. Jinoyatchilik sabab va sharoitlarini bunday tasniflash kerakli profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni qaerlarda amalga oshirish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Ichki ishlar organlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va baholash

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi JQBB Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi hamda uning joylardagi tizimlari tomonidan **2018-yilning 5 oyi** mobaynida korrupsiya va iqtisod sohasida sodir etilgan, hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlardan **435 tasi** (2017-yilda 669 tasi) aniqlangan. Mazkur jinoyatlarning **43 (89) tasi** poraxo‘rlik, **21 (47) tasi** tovlamachilik, **180 (228) tasi** firibgarlik, **67 (65)**

tasi valyuta qoidasini buzish, **5 (8) tasi** qalbaki pul yasash, **57 (89) tasi** talon-tarojlik hamda **62 (143) tasi** boshqa turdagi jinoyatlar bilan bogʻliqdir.

Shuningdek, **143 (205) ta** guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar fosh etilib, jinoyat sodir etgan **640 (970) nafar** shaxsni jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Jinoyatlar natijasida etkazilgan **30 mlrd. 713 mln. 700 ming soʻmlik** moddiy zararining **16 mlrd. 305 mln. 200 ming soʻmini** undirilgan.

2018-yilning 5 oyi davomida aniqlangan jinoyatlar boʻyicha etkazilgan zarar Surxondaryo viloyati IIBda **26,8 mln. soʻmni**, Qoraqalpogʻiston Respublikasi IIVda **278,1 mln. soʻmni** hamda Navoiy viloyati IIBda **353,8 mln. soʻmni** tashkil etib, bu koʻrsatkich xodimlar tomonidan aniqlangan jinoyatlar kam jihatli, ijtimoiy xavfi katta boʻlmagan jinoyatlar ekanligidan dalolat beradi.

Agrosanoat kompleksida **24 ta**, sanoatda **7 ta**, yoqilgʻi energetika kompleksida **13 ta**, bank, moliya-kredit tizimida **11 ta**, ijtimoiy sohalarda **95 ta**, isteʼmol bozorida **29 ta**, chet el firmalari va qoʻshma korxonalarida **2 ta**, oʻrta va kichik biznesda **34 ta**, huquqni muhofaza etish idoralarida **3 ta**, nazorat idoralarida **8 ta**, hokimiyat idoralarida **25 ta** hamda boshqa sohalardagi **184 ta** jinoyat aniqlangan.

Keyingi vaqtlarda huquqbuzarliklar, jumladan, korrupsion huquqbuzarliklarning profilaktikasiga boʻlgan eʼtiborning kuchayganligi natijasida poraxoʻrlik jinoyatlarini (**2018-2017**) kamayishiga erishilgan hududlar: Samarqand viloyati IIBda **84,6 foizga (13-2)**, Surxondaryo viloyati IIBda **85,7 foizga (7-1)**, Namangan va Jizzax viloyati IIBlarida IIBda **75 foizga (8-2)**, Xorazm viloyati IIBda **66,7 foizga (6-2)**, Andijon viloyati IIBda **66,7 foizga (6-2)**, Qashqadaryo viloyati IIBda **46,2 foizga (13-7)**, Toshkent shahar IIBda **33,3 foizga (3-2)**, Fargʻona viloyati IIBda **28,6 foizga (7-5)** hamda Navoiy viloyati IIBda **25 foizga (4-3) foizga kamaygan**.

Oʻzlashtirish jinoyatlarini **aniqlanishi Navoiy viloyatida** 100 foizga (4-0), **Surxondaryo viloyatida** 90,9 foizga (11-1), **Toshkent viloyatida** 85,7 foizga (14-2), **Qashqadaryo viloyatida** 80 foizga (5-1), **Andijon viloyatida** 66,7 foizga (9-3), **Samarqand viloyatida** 50 foizga (4-2) **hamda Jizzax viloyatida** 16,7 foizga (18-15) **kamaygan**.

Ichki ishlar organlari tomonidan 2018-yilning 5 oyi mobaynida respublikamiz hududiga noqonuniy ravishda tovar moddiy-boyliklarni olib kirish va chetga olib chiqish hamda tovar moddiy-boyliklarni noqonuniy omborlar («yama»lar)da saqlash bilan bogʻliq **39 ta** qonunbuzarlik holatlari aniqlanib, shundan **7 tasi** boʻyicha jinoyat ishlari qoʻzgʻa-

tildi, qolgan **32 ta** holatlar bo'yicha ma'muriy tartibda choralar ko'rildi. Qonunbuzarlardan **4 mlrd. 952 mln. so'mlik** tovar-moddiy boyliklar olib qo'yildi va davlat foydasiga o'tkazildi.

Jumladan, noqonuniy ravishda davlatimizga olib kirilgan tovar moddiy-boyliklarini iste'molchilarga etkazishni o'ziga kasb qilib olgan **13 nafar** transport vositalarining haydovchilariga nisbatan qonuniy choralar ko'rildi. Noqonuniy ravishda olib kirilgan tovarlarni tashishda foydalanilgan **2 ta** transport vositasi olib qo'yildi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi eng muhim, samarali va insonparvar yo'nalishlardan biri bo'lib jinoyatchilikning oldini olish hisoblanadi. Shunday ekan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish avvalambor uning sabab va sharoitlarini tartibga solish, amaliyotda ularni to'liq aniqlash va bartaraf qilish, kuchsizlantirish uchun kerakli bo'lgan maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tabaqalashtirishni va tasniflashni talab qiladi. Kriminologiyada jinoyatchilik sabab va sharoitlarini tabaqalashtirish va tasniflash ularni kelib chiqishi, harakat qilish darajasi, mazmuni, harakat qilish yo'nalishi, vaqt va mintaqaviy tarqalishi va boshqa turli xil asoslar bo'yicha amalga oshiriladi.

Jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini o'rganish ularga darajalar bo'yicha yondashishni talab qiladi. Kriminologiya dialektikaning umumiylik, maxsuslik va alohidalik kategoriyalariga asoslanib sabab va sharoitlarni umumijtimoiy, guruhviy va shaxsiy darajadagi sabab va sharoitlarga bo'lib o'rganadi:

1) umumijtimoiy darajadagi sabab va sharoitlar – bu jamiyatda jinoyatchilikning ijtimoiy huquqiy hodisa sifatida ob'ektiv qonuniy ravishda bo'lishini taqozo qiladigan, (belgilab beradigan) sabab va sharoitlardir. Jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini o'rganish umumiy nazariy ahamiyatga ega va jinoyatchilikka qarshi kurash umumiy muammolarini hal qilishning ilmiy asosi hisoblanib jinoyatchilik sabab va sharoitlarini keyingi darajalarda tahlil qilish uchun dastlabki manba hisoblanadi;

2) guruhviy darajadagi sabab va sharoitlar alohida turdagi jinoyatchilikning (voyaga etmaganlar, retsidiv, g'arazgo'ylik, zo'ravonlik, ehtiyotsizlik va h.k.), alohida turdagi jinoyatlarning (qotillik, o'g'irlik, bosqinchilik va h.k.) sabab va sharoitlari bo'lib, alohida turdagi jinoyatchilikning yoki jinoyatlarning jamiyatda bo'lishini, sodir qilinishini taqozo qiladi;

3) shaxsiy darajadagi sabab va sharoitlar esa muayyan shaxsni jinoyat sodir qilishga olib kelgan, asosan shaxsiy, sub'ektiv xususiyatga ega bo'lgan sabab va muayyan hayotiy, tasodifiy sharoitlardir. Shuni ta'kid-

lab o'tish kerakki, barcha darajadagi sabab va sharoitlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, umumijtimoiy va guruhiiy darajadagi sabab va sharoitlar shaxsiy darajadagi sabab va sharoitlarda ko'rinadi, shaxsiy darajadagi ko'p uchraydigan tipik sabab va sharoitlar esa umumijtimoiy darajadagi sabab va sharoitlarni tashkil qiladi.

Umumijtimoiy darajadagi sabab va sharoitlarni o'rganish ilmiy bilish ahamiyatiga ega va umumdavlat miqyosida yoki uning ma'lum bir mintaqalarida jinoyatchilikning oldini olish tizimini ishlab chiqish va tashkil qilish uchun zarurdir. Guruhiiy darajada jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini o'rganish esa umumdavlat miqyosida yoki uning ma'lum bir mintaqalarida alohida turdagi jinoyatchilikning yoki jinoyatlarning oldini olish, ularning miqdorini kamaytirish maqsadida profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish uchun zarurdir. Shaxsiy darajada sabab va sharoitlarni aniqlash va o'rganish amaliy ahamiyatga ega bo'lib har bir jinoyat sodir qilgan shaxsga jazo tayinlashda yakka tartibda yondashish uchun va uni jinoyat sodir qilishiga ko'maklashgan sharoitlarni bartaraf etish uchun zarurdir. Har bir muayyan jinoyatning sabab va sharoitlari o'ziga xos xususiyatga ega va bir-biridan farq qiladi. Lekin har qanday muayyan hodisada ham hamma vaqt qandaydir umumiylik aks etadi. Shuning uchun ham jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini o'rganishning ilmiy-amaliy ahamiyati muayyan jinoiy ish jildlari majmuini va jinoyatga oid statistika ma'lumotlarni tahlil qilish asosida olingan umumlashtirilgan ma'lumotlarga asoslangan.

5-MAVZU. ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLIISH CHORALARI

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari. Ichki ishlar organlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olishning dolzarbligi

O‘zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘ri-sida»gi qonunining 4-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari ko‘rsatilgan bo‘lib ular quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tizimlilik;
- davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- javobgarlikning muqarrarligi.

Ushbu korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali ta‘minlashini belgilab beradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta‘minlash.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

2. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi;

3. Korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to'g'risidagi axborotni yig'adi hamda tahlil qiladi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

4. Jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko'radi;

5. Aholi o'rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

6. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi statistika ma'lumotlarining hisobi yuritilishini va tahlil qilinishini ta'minlaydi;

7. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo'yilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

9. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'radi, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta'limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish yo'li bilan zarur chora-tadbirlar ko'radi.

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar o'z mansabdor shaxslarining hamda boshqa xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi.

Ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya belgilangan davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta'lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

- davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik;

- davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish;

- davlat organlari xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqining yagona prinsiplari va qoidalarini belgilovchi odob-axloq qoidalarini samarali amalga oshirish;

- davlat organlari xodimlari manfaatlarining to'qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o'tkazilishini ta'minlash;

- davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomini belgilash, xizmatni o'tashning shaffof tartibini o'rnatish, shaxsiy va kasbiy sifatlar, ochiqlik, beg'arazlik, adolatlilik va xolislik prinsiplari asosida tanlov bo'yicha saralash hamda xizmatda ko'tarilish tizimini joriy etish;

- davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi, murojaatlarning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi, ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida choralar ko'rilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

- davlat organlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ushbu organlar tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o'tkazish;

- normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish;

- davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta'minot olishini va rag'batlantirilishini ta'minlash.

Davlat organlarining va o'zga tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda boshqa xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg'arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shart.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, ruxsat etish va litsenziyaga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish;

- davlat organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo'l qo'ymaslik;

- davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning masofaviy shakllarini keng joriy etish;

- tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun teng shart-sharoitlar yaratish va insofsiz raqobatga yo'l qo'ymaslik;

- davlat xaridlarining samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish, davlat xaridlarini joylashtirishda oshkoralik, shaffoflikni ta'minlash hamda raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash;

- ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, kommunal xizmat ko'rsatish sohasida va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning boshqa soha- larida aholi uchun adolatli shart-sharoitlarni hamda teng imkoniyatlarni yaratish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik;

- nodavlat tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

Davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi kerak. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, davlat organlarining xodimlari o'zining bevosita rahbarini darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishi shart. Davlat organlarining maxsus bo'linmalari yoki odob komissiyalari manfaatlar to'qnashuvini hal etish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi. Davlat organlari- ning manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yoki uni bartaraf etish talab- lari buzilishiga yo'l qo'ygan xodimlari, shuningdek ularning rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Ma'muriy tartib-taomillar sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- qonuniylik va adolatlilik prinsiplarini ta'minlash, ma'muriy-bosh- qaruv jarayonining beg'arazligi kafolatlarini yaratish, ushbu jarayonning shaffofligini, tashqi va ichki nazorat uchun ochiqligini oshirish;

- o'z ixtiyoricha harakat qilish vakolatlarini cheklagan holda ma'- muriy tartib-taomillarni batafsil tartibga solish, byurokratik rasmiyatchi- likka yo'l qo'ymaslik;

- soddalashtirilgan ma'muriy tartib-taomillarni joriy etish;

- davlat organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilishning va etkazilgan zarar o'rnini qoplashning samarali mexanizmlarini belgilash.

Davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to'g'risidagi axborotning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash;

- adolatli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog'ida xolisona mezonlardan foydalanilishini ta'minlash;

- ichki nazoratning samarali tizimini, shuningdek davlat xaridlarini o'tkazish natijalari yuzasidan shikoyat qilish va nizolashishning samarali tartib-taomilini yaratish;

– davlat elektron savdolarining samarali ishlashini ta'minlash.

Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi:

– korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillarni aniqlashga;

– korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan loyihani qabul qilish oqibatlarini umumiy baholashga;

– normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash jarayonida korrupsiya xususiyatiga ega xavflarning yuzaga kelishi ehtimolini prognoz qilishga;

– korrupsiyaga sabab bo'lgan, aniqlangan omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga va choralar ko'rishga yo'naltirilgan jarayondan iborat bo'ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlashga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

– korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining korrupsiyaning holatini va tendensiyalarini tizimli tahlil qilishga asoslangan samarali ishini tashkil etish, ularning faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik;

– korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashning zamonaviy shakllari va usullaridan foydalanish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik ta'minoti darajasini oshirish, ularning ishiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

– sudlarning mustaqilligi va erkinligini, ular faoliyatining ochiqligini ta'minlash;

– korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari o'rtasida muvofiqlashtirishni va hamkorlikni ta'minlash;

– jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlariga doir murojaatlari to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash;

– korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot bergan shaxslarning himoya qilinishini ta'minlash;

– korrupsiyaga qarshi kurashning samarali jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual mexanizmlarini yaratish.

Davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida biror-bir shaxs o'zlariga murojaat etganligiga doir barcha hollar to'g'risida, shuningdek davlat organlari-

ning boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan har qanday faktlari haqida o'z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart. Ushbu nazarda tutilgan majburiyatning davlat organlarining xodimlari tomonidan bajarilmaganligi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etganlik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko'ra muayyan huquqlardan, shu jumladan muayyan lavozimlarni egallash huquqidan qonunga muvofiq mahrum etilishi mumkin.

Yuridik shaxslar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslar davlat himoyasida bo'ladi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni ta'qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida bila turib yolg'on axborot bergan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlar manfaatdor shaxsning arizasiga ko'ra vakolatli davlat organi, boshqa tashkilot yoki mansabdor shaxs tomonidan bekor qilinishi yoxud o'zgartirilishi yoki sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilganligi natijasida qabul qilingan qaror bekor qilingan, o'zgartirilgan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, uning qabul qilinishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga etkazilgan zararning o'rnini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi lozim.

Korrupsiyaning holatini, xususiyatini, miqyoslarini, o'zgarishlarini va tendensiyalarini, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilish samaradorligini o'rganish davlat organlari tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, shuningdek fuqarolar bilan hamkorlikda sotsiologik, maxsus, ilmiy tadqiqotlar hamda boshqa turdagi tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan doimiy asosda amalga oshiriladi.

Sotsiologik tadqiqotlar korrupsiyaga eng ko'p duchor bo'lgan tarmoqlar va sohalarni, uning yuzaga kelishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash,

shuningdek mazkur faoliyatga jalb etilgan ijtimoiy guruhlarni aniqlash maqsadida sotsiologik so'rovlar o'tkazish va boshqa usullardan foydalanish yo'li bilan jamoatchilik fikrini tizimli o'rganishni o'z ichiga oladi.

Maxsus tadqiqotlar huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyati natijalarini, korrupsiyaga oid jinoyatchilikning holatini, korrupsiya ko'rsatkichlarining statistika hisobini muntazam ravishda tizimli tahlil qilishni, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning xususiyati va miqyoslarini, o'zgarishlari va tendensiyalarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Ilmiy tadqiqotlar korrupsiyaga qarshi kurashish muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni, ilmiy uslubiyotlar va tavsiyalar ishlab chiqishni, ularni amaliyotga oqilona joriy etishni, korrupsiyaga qarshi kurashishda qo'llanilayotgan shakllar va usullar samaradorligini prognoz qilish hamda ilmiy tahlil etishni o'z ichiga oladi.

Davlat korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi.

Har kim davlat organlarining tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi to'g'risida, shu shaxsning o'ziga yoki shaxslar guruhiga taalluqli bo'lgan hujjatlarning qabul qilinish jarayonlari haqida axborot olish huquqiga ega.

Ichki ishlar organlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olishning turi, usul va shakllari

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish hamda unga qarshi kurashish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi PQ-2752-son «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori muhim ahamiyat kasb etadi.

«Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qoidalarining samarali ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida:

Birinchiidan, 2017-2018-yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi (keyingi o'rinlarda – Davlat dasturi) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirishi belgilangan.

Ikkinchiidan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi 2-ilovaga muvofiq tarkibda tuzilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;

- korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Uchinchidan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlangan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qarorlari barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar tomonidan ijro etilishi majburiyligi belgilab qo'yilgan.

To'rtinchidan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalarni tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalarga tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari boshchilik qilishi belgilab qo'yilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi. Komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Komissiya o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi hamda davlat organlari, boshqa tashkilotlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

Komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;

- korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Komissiya quyidagi huquqlarga ega:

– korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish;

– vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlaridan Komissiya vakolatiga taalluqli bo‘lgan axborotni belgilangan tartibda so‘rash va olish;

– tegishli davlat organlariga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonun hujjatlarini va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish;

– korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari rahbarlarining hisobotlarini va ma‘ruzalarini eshitish;

– Komissiya faoliyatining muhim masalalari yuzasidan o‘rganishlar o‘tkazish va takliflar tayyorlash uchun ishchi komissiyalar va (yoki) ekspert guruhlarini tuzish, shuningdek ushbu komissiyalar va guruhlar ishiga mutaxassislarni jalb etish.

Komissiya quyidagilarga majbur:

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha qarorlarini ijro etish;

• Komissiya tomonidan qabul qilingan qarorlarning o‘z vaqtida ijro etilishi yuzasidan nazoratni va monitoringni amalga oshirish.

Komissiyaning shaxsiy tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Komissiya faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi va o‘z majlislarini zaruratga qarab, ammo chorakda kamida bir marta o‘tkazadi. Komissiyaning qarorlari majlisda qatnashgan komissiya a‘zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lganda Komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Komissiya qarorlari majlisda ishtirok etgan Komissiya a‘zolari tomonidan imzoladigan, Komissiya raisi yoki uning o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Protokolni imzolashda Komissiya a‘zolari alohida fikr bildirish huquqiga ega. Komissiya majlislariga davlat organlari, boshqa tashkilotlar vakillari, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar rahbarlari taklif etilishi mumkin.

Komissiyaning ishchi organi funksiyasini O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bajaradi.

Ishchi organ quyidagilarni amalga oshiradi:

- Komissiya faoliyatini moddiy-texnika jihatidan ta'minlash;
- Komissiya ish rejasini ishlab chiqish, uning ijrosini nazorat qilish, shuningdek Komissiyaning kundalik faoliyatini tasdiqlangan rejaga muvofiq tashkil etish;

- vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda Komissiyaning qabul qilingan qarorlari ijrosini nazorat va monitoring qilish, Komissiya raisiga tegishli axborot va takliflarni kiritish;

- kelib tushayotgan xat va hujjatlarni ko'rib chiqish va Komissiya vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan qarorlar tayyorlash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasiga korrupsiyaga qarshi kurashishga imkon beradigan chora-tadbirlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlanishini va kiritilishini tashkil etish.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish shartli ravishda 4 ta turiga ajratish mumkin:

- 1) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning umumiy oldini olish;
- 2) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning maxsus oldini olish;
- 3) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning yakka tartibda oldini olish;
- 4) Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning viktimologik oldini olish.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning umumiy tartibda oldini olishning shakllari esa quyidagi to'rt turda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi:

- yozma;
- og'zaki;
- ko'rgazmali;
- elektron.

Albatta, umumiy tartibda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishda shaklni tanlash va o'z o'rnida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishda ko'pincha og'zaki shakllar bilan birga ko'rgazmali shakllardan foydalanish samaraliroq hisoblanadi. Ya'ni, profilaktikani amalga oshirishda faqat bir shakldan foydalanish emas, balki boshqa shakllarni birgalikda qo'llash ham maqsadga muvofiq.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi oldini olishning shakllari:

- 1)og'zaki;
- 2)yozma;
- 3)ko'rgazmali.

Ogʻzaki shaklda amalga oshiriladigan yakka tartibdagi profilaktika asosan profilaktik suhbat, savol-javob, yakka tartibda profilaktika olib borilayotgan shaxsni jamoa oldida (oʻqish, ish va yashash joyida) muhokama qilish, tarbiyaviy va psixologik taʼsir etish maqsadida matnli audio yozuvlarni eshittirish kabi profilaktik chora-tadbirlarda namoyon boʻladi.

Yozma shaklda olib boriladigan yakka tartibdagi profilaktika rasmiy ogohlantirish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar toʻgʻrisida xabardor qilish, gazeta va jurnallarda chop etilgan maqola, hikoya va qissalarni, shuningdek badiiy adabiyotlarni oʻqishni tavsiya qilish kabilar asosida amalga oshiriladi.

Koʻrgazmali shaklda oʻtkaziladigan chora-tadbirlar yakka tartibdagi profilaktik ishlarni olib borish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish, kinofilmlar namoyish qilish, xulosa chiqarish uchun ayrim jamiyatga zid tarzda turmush kechirgan yoki aksincha ijtimoiy ijobiy xulq-atvori bilan yuksak natijaga erishgan shaxslarning hayot tarzi va yashash sharoiti bilan tanishtirish kabilar orqali ifodalanishi mumkin.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishning asosiy usullari:

- 1) ishontirish;
- 2) ragʻbatlantirish;
- 3) majburlash.

Ichki ishlar organlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olishning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktik chora-tadbirlari

Oʻzbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi toʻgʻrisida»gi qonuni bilan ichki ishlar organlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olishning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktik chora-tadbirlari belgilab berilgan. Shu oʻrinda huquqbuzarlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi kabi tushunchalarga aniqlik kiritib olish lozim, huquqbuzarlik – sodir etilganligi uchun maʼmuriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli gʻayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik); huquqbuzarliklar profilaktikasi – huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bar-taraf etish maqsadida qoʻllaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash;

- huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

- huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;

- jismoniy shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish;

- huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar faoliyatining o'zaro hamkorligini ta'minlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari quyidagilardan iborat:

- huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi;

- huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi;

- huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi;

- huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

- aholi o'rtasidagi huquqiy targ'ibot;

- huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish hamda huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalar kiritish;

- huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini amalga oshirish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- 1) ayrim turdagi huquqbuzarliklarning, shaxslar toifalarining ko'payishi;

2) jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishi.

Ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

– jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish;

– jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

– ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tayotgan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilishga va ijtimoiy moslashtirishga tayyorlash bo'yicha maxsus tadbirlarni amalga oshirish;

– jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil etish hamda amalga oshirish;

– jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini tashkil etayotgan tashkilotlarni rag'batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

– giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishining, ular iste'mol qilinishining, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlari qonunga xilof ravishda ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishining oldini olish bo'yicha profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– mastlik holatida, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha profilaktika tadbirlarini o'tkazish;

– giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni saqlash, tashish, realizatsiya qilish va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

– alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi «Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- profilaktika suhbatlari;
- rasmiy ogohlantirish;
- huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida xabardor qilish;
- ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;
- profilaktik hisobga olish;
- majburiy davolanishga yuborish;
- ma'muriy nazorat;
- huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda profilaktika tadbirlarini o'tkazish;
- aholiga, shu jumladan huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etish usullarini o'rgatish;
- huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarni aniqlash va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish;
- huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tashkil etish;
- huquqbuzarlikdan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab

chiqish va amalga oshirish, uni qonunda nazarda tutilgan o'zini o'zi mudofaa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish;

– g'ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo'lib turadigan joylarni (hududlarni) muntazam ravishda nazorat qilish;

– hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat haqidagi ma'lumotlarni keng tarqatish yo'li bilan aholiga huquqiy tarbiya va ta'lim berish;

– g'ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risida axborot olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida ishonch, tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruv xizmatlarini tashkil etish;

– profilaktika dasturlari va tadbirlari loyihalarining ommaviy muhokamalarini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonida muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida jahon Internet axborot tarmog'ida veb-saytlar, bloglar, chatlar tashkil qilish;

– huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy usullari to'g'risida elektron adabiyotlarni tarqatish;

– huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi qonun hujjatlari-ga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

6-MAVZU. ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

«Korrupsiyaga qarshi xulq-atvor» tushunchasi va mohiyati. Korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni ichki ishlar organlari xodimlarida shakllantirishning o‘rni va ahamiyati

Ichki ishlar organlari xodimlarining korrupsiyaga qarshi xulq-atvor masalasiga o‘tishdan avval mazkur yo‘nalishdagi xulq-atvorning umumiy tavsifiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Korrupsiyaga qarshi xulq-atvor insonda bilim, «immunitet», shuningdek korrupsiyaga qarshi oliy maqsadga mos keluvchi barqaror xulq-atvor me‘yorlarida o‘z aksini topgan tegishli ma‘naviy-axloqiy ehtiyojlar, insof, imon-e‘tiqod, halollik kabi sifat va hissiyotlarni shakllantirishga qaratilgan maqsadli jarayondir.

Umuman olganda, korrupsiyaga qarshi xulq-atvor ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Maxsus adabiyotlarda qayd etilishicha, shaxsni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash uch yo‘l bilan amalga oshiriladi. Bular:

- maqsadga yo‘naltirilgan jarayon;
- uning ta‘sirida ob‘ektiv hayotiy sharoitlarning shakllanishi;
- o‘zini o‘zi tarbiyalash.

Ijtimoiy hayot korrupsiyaga qarshi xulq-atvorga o‘z ta‘sirini ko‘rsatib, axloqiy xulq-atvorning o‘ziga xos xususiyati hamda korrupsiyaga qarshi ma‘rifatning maqsadidan kelib chiqadi. Axloqiy xulq-atvorning o‘ziga xosligi shundaki, u zamon va makonda chegara bilmay, har erda va doimiy ravishda amalga oshirilib kelinadi. Toki inson tirik ekan, u atrof muhitning xoh ijobiy, xoh salbiy bo‘lsin, axloqiy ta‘siri ostida yashaydi. Zero, biz atrofimizda bo‘layotgan voqea-hodisalarga axloqiy baho berishga intilamiz.

Ichki ishlar organlarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tegishli buyruqlari bilan tartibga solinadi. Korrupsiyaga qarshi ma‘rifat respublikamiz ichki ishlar organlarida olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy, tarbiyaviy ishlarning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, ichki ishlar organlari xodimini korrupsiyaga qarshi tarbiyalashda nafaqat ko‘p yillik xizmat, boy kasbiy

va hayotiy tajribaga ega, balki qonunchilik va huquq-tartibotni ta'minlash bo'yicha xizmat burchini bekamu ko'st bajaradigan, Vatanimiz gullab-yashnashi uchun o'z kuchini ayamaydigan xodimlarning shaxsiy namunasi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Ta'kidlash joizki, shaxsning ma'naviy-axloqiy ko'nikmalari ko'pincha ijtimoiy muhitda shakllanadi va rivojlanadi. Shu munosabat bilan tahlil qilinayotgan masalada jamoadagi axloqiy-ruhiy iqlim alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatdagi mavjud illatlarga qarshi kurash talablarini har bir xodimning ichki axloqiy-ruhiy maslagi va e'tiqodiga aylantirish korrupsiyaga qarshi xulq-atvorning o'zagini tashkil qiladi. Mazkur talablar keyinchalik har bir xodimning nafaqat kasbiy faoliyatida, balki hayotida ham yo'l boshlovchi mayoq bo'lib xizmat qiladi. Ushbu masalada, huquqiy tashviqot bo'yicha olib borilayotgan maqsadli ishlarga tayangan holda, ichki ishlar organi xodimida korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari to'g'risida nafaqat zarur bilimlarni, balki oliy maqsad, axloqiy yoki axloqsiz xatti-harakat, axloqiy prinsip va me'yorlar to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, xodim mazkur qoidaga amal qilishi uchun u xavfli korrupsion xulq-atvor nima, uning ko'rinishlari qanday hamda unga nisbatan axloqiy murosa-sizlik va noaniqlik nimadan iborat ekanligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur.

Boshqa tarafdin, korrupsiyaga qarshi tarbiya insonda u tomonidan idrok qilingan va o'rganilgan ma'naviy-axloqiy tafakkur unsurlari asosida amal qilish va harakat qilish bo'yicha chuqur ichki ehtiyojni yaratishdan iboratdir. Aytish joizki, tarbiya jarayoniga tegishliligi bo'yicha umumiy korrupsiyaga qarshi va kasbiy-etik standart (qolip) rasman O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlarining muomala madaniyatining bir qismini tashkil etadi. Zero, ichki ishlar organlarida korrupsiyaga qarshi xulq-atvor tizimiga tegishli tarzda ichki ishlar organlari xodimlarining muomala madaniyatining «xizmat burchi», «kasbiy obro'», «xodimning shaxsiy sha'ni» kabi tushunchalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Xodim o'zining korrupsiyaga qarshi xulq-atvor chizig'ini kasbiy obro'si, xizmat sha'ni, fuqarolik va xizmat burchi to'g'risidagi tushunchalardan kelib chiqqan holda qo'radi. Basharti, qilmish va uning oqibatlari insonning burch, sha'n, qadr-qimmat to'g'risidagi tasavvurlariga zid bo'lsa, u bu kabi xatti-harakatni sodir etishdan o'zini tiyadi. Natijada qilmish sabablari va uning yuzaga kelish oqibatlari haqidagi tasavvurlar-

ning to'liq bir-biriga mos kelishi korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi, hattoki hayot va sog'liqqa xavf solib bo'lsa-da, keskin, shiddatli va murosasiz harakatlar uchun qudratli rag'bat bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy prinsiplariga bag'ishlangan birinchi sessiyasidagi majlisida korrupsiya ko'rinishlariga qarshi kurashning muhim jihatlari-dan biri sifatida jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat bergan holda «huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas. U – qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. U – odil sudni hurmat qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish ehtiyoji demakdir. Huquqiy madaniyat degani – turli mojarolarni hal qilishda qonunga xilof kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir», deb ta'kidlaydi.

Bundan ko'rinib turibdiki, xodimlar tomonidan qonunlarning yaxshi o'zlashtirilishi korrupsiyaga qarshi ma'rifatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun dastlabki shart bo'lib xizmat qiladi. Korrupsiyaga qarshi ma'rifatning muhim vazifalaridan biri xodimlarda mustahkam ishonchni shakllantirish, unga muvofiq ravishda qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha o'z faoliyatlarini amalga oshirishdir. Zero, korrupsiya, avvalo, insonning qadr-qimmatini, sha'ni, asosiy siyosiy va iqtisodiy huquqlari buzilishi va kamsitilishiga olib keladi.

Axloqiy e'tiqodlar inson faoliyati va xulq-atvorining barcha sohalari-ga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ular inson tomonidan rioya etilishi zarur hisoblangan, uning ongida chuqur ildiz otgan va rahbariy qoidaga aylangan me'yor, oliy maqsad, ma'naviy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Aynan ular maqsad sifatida o'z majmuida xodimning korrupsiyaga qarshi xulq-atvorini belgilaydi. Zarur ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega bo'lgan xodim xizmat mavqeini suiiste'mol qilish, tamagirlik va korrupsion xulq-atvorni o'ziga ep ko'rmaydi. Agar bunday xodim rahbar bo'lsa, qo'l ostidagilari uchun taqiqlangan narsani o'zi uchun ham taqiqlangan deb hisoblaydi.

Ichki ishlar sohasida har qanday pog'onadagi rahbar avvalo xalq ishonchini oqlashga intilishi, o'z qo'l ostidagilari uchun mas'uliyatni his qilishi lozim. Uning butun ish faoliyati Vatan ravnaqi, xalq ichida huquq-tartibot organlari xizmatchilarining obro'sini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu maqsadga erishish uchun har bir rahbar qonunga, ichki ishlar organlari xodimlarining muomala madaniyatiga og'ishmay

rioya qilishi, o'zining pokligi, vijdonliligi, halolligi, adolatliligi, tamagirlikka murosasizligi bilan qo'l ostidagilariga shaxsiy namuna bo'lishi lozim.

Xodim shaxsidagi vatanparvarlik, faol fuqarolik nuqtai nazari, o'z xalqiga sodiqlik, halollik, talabchanlik, insoniylik, o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish, maqsadga intiluvchanlik, o'z kasbiy ko'nikmalarini oshirishga intilish kabi shaxsiy sifatlar har qanday korrupsion ko'rinishlarga qarshi ishonchli to'siq bo'lib xizmat qiladi.

O'z faoliyatda bir marta bo'lsa-da, korrupsion xatti-harakatga yo'l qo'ygan xodim kasbiy va axloqiy jihatdan buzilgan hisoblanadi. Bu, o'z kasbiga suiqasd qilish, shaxsiy manfaatlarini xizmat manfaatlaridan yuqori, ya'ni qonuniylik va axloq qoidalardan yuqori qo'yish degan ma'noni bildiradi. Xodimning korrupsion munosabatda ishtirok etishi bilan bog'liq har qanday holat uni ichki ishlar organlarida xizmat qilishga noloyiqligi to'g'risida xulosa chiqarishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, ularning bunday qilmishlari qonun tomonidan qattiq jazolanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarida korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirishga qo'yiladigan talablar

Korrupsiyaga qarshi kurashishda, avvalo, har bir inson o'z faoliyatini isloh qilishi kerak. Islohotlar avvalo inson ongini o'zgartirishdir. Korrupsiyaga qarshi ma'rifatni yuksaltirish ushbu qonunning ajralmas qismini tashkil etadi. Ushbu illatga qarshi kurash birinchi navbatda oiladagi muhit va ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Nima halolu nima harom ekanligini farzandlarimizga bobo va momolar, ota-ona va ustozlar o'giti bilan singdiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz» deganlarida farzandlarimizni bolaligidan pokni nopokdan, halolni haromdan farqlashga o'rgatishni nazarda tutadi va yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning quyidagi fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlari lozimligini ta'kidlaydi: «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq».

O‘z shaxsiy manfaatlari «quli»ga aylangan, ularni davlat va jamiyat manfaatlaridan yuqori qo‘ygan xodim, shubhasiz, korrupsiyaning engil o‘ljasiga aylanadi. Ma’naviy dunyosi chegaralangan odamlar ertami-kechmi axloqiy tubanlikka yuz tutadilar. Aynan shunday muhit korrupsiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi hech kimga sir emas. Bejizga xalqimiz «Odam bo‘lish asta-asta, hayvon bo‘lish bir pasda», deb aytmagan.

Buyruqlar, nizomlarning qat’iy talablari mavjud, ammo inson munosabatlari bilan bog‘liq nozik soha borki, uni qonun-qoida doirasiga solib bo‘lmaydi. Fuqarolar tinchligini, ularning osoyishta hayot kechirish huquqini ta’minlovchi ichki ishlar organlari ulkan jamoasi mehnatiga bitta noqonuniy harakat, bitta tamagirlik holati bilan raxna solinishi mumkin. Shu bois, har bir xodim ustiga huquq-tartibot va qonuniylik qo‘riqchisi libosini kiyar ekan, unga yuklatilgan mas’uliyat darajasini teran anglashi zarur. Xodim uchun kasbiy muhim axloqiy va ma’naviy sifatlari ko‘pgina normativ hujjatlarda o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2017-yil 14-iyuldagi «Ichki ishlar organlari xodimlarining muomala madaniyatini oshirish choralari to‘g‘risida»gi **147-sonli buyrug‘ida:**

Mamlakatimizning har bir fuqarosi ichki ishlar organlari xodimi timsolida o‘zining hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmatini har qanday tajavuzlardan muhofaza qilishga va og‘ir damda yordam berishga tayyor bo‘lgan himochisi himochasini ko‘rishi hamda o‘zining xavfsizligini his qilishi zarur deb belgilangan.

Hamda ushbu buyruqda xodimlar uchun quyidagilar qat’iyan man etilishi ko‘rsatilgan:

– o‘zini fuqarolardan ustun qo‘yish, ularga nisbatan bepisand munosabatda bo‘lish yoki qo‘pollik qilish, yolg‘on gapirish yoxud boshqa asossiz bahonalar bilan ularni chalg‘itish;

– fuqarolarni sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlar va muomalaga (haqorat qilish) yo‘l qo‘yish, ularga nisbatan qonunga xilof ravishda jismoniy kuch ishlatish yoki shunday kuch ishlatish bilan qo‘rqitish;

– jismoni shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqishdan bo‘yin tovlash yoki ko‘rib chiqishni asossiz rad etish;

– xizmat zarurati bilan ichki ishlar organlariga chaqirilgan (olib kelingan) shaxslarni asossiz kuttirib qo‘yish;

– xizmatni olib borish vaqtida, shuningdek xizmat kiyimida spirtli ichimliklar iste‘mol qilish.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2007-yil 12-sentyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining IIolari shaxsiy tarkibi bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi **171-sonli buyrug‘ida**:

III xodimlarida Vatanparvarlik, xizmat burchiga sadoqat, ma’suliyat va javobgarlik hissini uyg‘otish, Vataniga sitqidildan xizmat qilish sharaflı burch ekanligini anglatish, har qanday mashaqatli xizmati ortida yurtimiz manfaati va xalqimizning baxt-saodati turganini qalbiga singdirishda yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarnı muhim o‘rin tutishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2016-yil 1-martdagi «IIolari shaxsiy tarkibi bilan «Ma’naviyat va ma’rifat darslari»ni tashkil etish to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi **44-sonli buyrug‘ida**:

IIolari xodimlarining ma’naviy-ma’rifiy, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarini oshirish, ular ongida milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz tarixiy an’nalirimizga, umuminsoniy qadryatlarga xurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhini singdirish, o‘qitish va tarbiyalash orqali islohatlar mazmun-mohiyatini, mustaqillikning ahamiyati, qadr-qimmatini tushuntirish ishlarini yanada takomillashtirish deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2016-yil 30-maydagi «IIolari xodimlarinin odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi **82-sonli buyrug‘i**:

Odob-axloq qoidalari IIolarixodimlarining xizmat intizomi va qonun hujjatlari talablarining buzilishining oldini olishga, ularning sodir etilishi sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga xodimlarni O‘z.Res. Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning talablariga, inson huquq va erkinliklariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan.

Shu kabi IIVning buyruqlari bilan Ichki ishlar organlari xodimlarida korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirishga qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xalqimizda «Nima eksang, shuni o‘rasan», «Qing‘ir ishning qiyig‘i qirq yilda ham chiqadi» degan maqollar bor. Mazkur hikmatlarning ma‘nosi har qanday yovuz ishni xalq nigohidan yashirib bo‘lmaydi, deganidir. Agar bugun bo‘lmasa, ertaga sharmanda bo‘lish, bir kunning o‘zida yillar davomida orttirilgan hurmat-e’tibor va misqollab to‘plangan obro‘ni yo‘qotish mumkin. Har qanday pora-xo‘rlik, tamagirlik holati izsiz bo‘lmaydi, chunki biz zamon bilan hamnafas huquqiy davlatda yashamoqdamiz, o‘z hayotini bu salbiy holatlarga murosasizlik ruhida

qurayotgan aholining huquqiy ongi o'zgarishida, huquqiy madaniyati, siyosiy faolligi ortmoqda.

Xodimlarda yuqori ijobiy axloqiy sifatlarni, ezgu ishlarni amalga oshirish, ijtimoiy foyda keltirish hissini qaror toptirish va rivojlantirish ma'naviy-axloqiy faoliyat olib borishlari uchun qudratli qurol bo'lib, faol fuqarolik nuqtai nazarining yuzaga kelishi, taraqqiyotga g'ov solishi mumkin bo'lgan har qanday illatlar, ayniqsa, korrupsiyaga muvazirlikni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, respublika huquq-tartibot organlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda quyidagi asosiy masalalar hal qilinib, ular zamirida korrupsiyaga qarshi xulq-atvor amalga oshiriladi:

– huquq-tartibot posbonlarida Vataniga, ichki ishlar organlari xodimlarining qasamyodiga va kasbiy burchiga sodiqlikni shakllantirish;

– xodimlarni O'zbekiston Respublikasi qonunlari, IIV buyruqlariga og'ishmay rioya qilish ruhida tarbiyalash;

– huquq-tartibot organlari xodimlarining xalq orasidagi obro'-e'tiborini fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, xizmat vazifalarini, xizmat intizomi me'yorlarini, qonuniylik va kasb madaniyati talablarini bajarish orqali mustahkamlash;

– xodimda yuksak ma'naviyat va qonun ustuvorligi asosida yashaydigan, yuqori darajada huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lgan fuqaro, vatanparvar, o'z kasbining mohir ustasining axloqiy-ruhiy sifatlarni kompleksini yaratish va rivojlantirish.

Korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xulq-atvorining ma'naviy-axloqiy mohiyati:

Ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyati doimo jamoatchilikning diqqat-e'tiborida. Ular xulq-atvorining ma'naviy-axloqiy tarkibi xizmat olib borishning ommaviy xususiyatga ega ekanligi bois muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining muomala madaniyatiga huquqiy normalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liqligi bois korrupsiyaga qarshi xulq-atvor IIO xodimlari kasbiy xulq-atvorining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga umumiy va maxsus xususiyatga ega turli chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha vazifalarni davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlari orasida taqsimlashga e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, jinoyatchilik, xususan korrupsiyaga shart-sharoit yaratib beruvchi

sabablarni bartaraf etish bo'yicha umumijtimoiy va maxsus chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan korrupsiya jinoyatlarining sodir etilishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

ijtimoiy omil – har qanday insonning xulq-atvori yashash uchun umumiy va doimiy kurashdan, jamiyat taraqqiyoti darajasidan kelib chiqadi. Shu bois korrupsiyaning kelib chiqish sabablari ijtimoiy hayot va xizmat jamosidagi sharoit bilan belgilanadi.

ruhiy omil – o'z kasbiy vazifalarini bajarish jarayonida xodimlar turli jinoyat unsurlarining ruhiy ta'siriga duch keladilar. Muloqat jarayonida xodimlarga tajovuzkor yoki o'zini idora qila olmaydigan holatdagi fuqarolar ta'sir o'tkazishi va xodimni korrupsion jinoyat sodir etishga majbur qilishi mumkin.

axloqiy omil – xodimning xulq-atvori va xatti-harakatlari uning irodaviy va axloqiy fazilatlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Ichki ishlar organlari xodimlarida korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish yo'llari

Ichki ishlar xodimi ko'p hollarda jabrlanuvchi yoki huquqbuzar duch keladigan davlat hokimiyatining birinchi vakili hisoblanadi. U birinchi bo'lib jamiyatga zid qilmishga baho beradi va davlat nomidan qonun talablarini bajargan holda jamoat tartibini buzuvchilarga majburlov choralari qo'llaydi. Aynan shu bois har qanday korrupsiya hodisasi huquq-tartibot organlari tizimida alohida xavf-xatarni yuzaga keltiradi, aholi orasida ishonchsizlik, davlat hokimiyati institutlariga ishonmaslikni yuzaga keltirib, jamiyatni axloqsizlikka o'rgatadi va iqtisodiy jihatdan zaiflashtiradi.

Yuksak kasbiy ma'naviyat va axloqqa ega xodim Qasamyod, kasbiy burch, kasbiy sha'n va obro' prinsiplariga asoslanadi, o'ziga quyidagi ma'naviy-axloqiy majburiyatlarni oladi:

– o'z faoliyatida davlat va xizmat manfaatlarining shaxsiy manfaatlardan ustuvorligiga amal qilish;

– kasbiy faoliyat va shaxsiy hayotda qonun talablari va xizmat intizomiga qat'iy va aniq rioya qilib, har qanday sharoitda halol va pok, xizmat manfaatlariga sodiq bo'lib qolish;

– inson qadr-qimmatini kamsituvchi, og'riq va azob-uqubat etkazuvchi har qanday harakatlarga murosasiz munosabatda bo'lish;

– jinoyatchilikning oldini olishda mard hamda yuzaga kelishi ehtimoli bo‘lgan xavf-xatar oldida dovyurak bo‘lish;

– jinoyatchilikka qarshi kurashda matonatli va murosasiz bo‘lish hamda oldiga qo‘yilgan maqsadlarga faqat ma‘rifat va qonuniy yo‘l bilan erishish;

– kasbiy faoliyatda va muloqotda «atrofdagi insonlar va hamkasblarining ular senga qanday munosabatda bo‘lishlarini istasang, shunday munosabatda bo‘l», degan ma‘naviyatning «oltin qoidasi»dan foydalanish;

– ichki ishlar organlarining yillar davomida toblangan, ijobiy an‘analarini saqlash va boyitish.

Xodim tomonidan axloqiy majburiyatlarning bekamu ko‘st bajarilishi uning jamoada ishonch, hurmat-e‘tibor, e‘tirof va fuqarolarning ko‘magiga erishishga zamin yaratadi.

Kasbiy burch, obro‘-e‘tibor va qadr-qimmat huquq-tartibot posbonining xizmat faoliyatida va korrupsiyaga qarshi xulq-atvorida ma‘naviy-axloqiy maqsad bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir xodimning burchi Qasamyod va kasbiy me‘yorlar tomonidan belgilangan huquq-tartibot va qonunchilikning ishonchli himoyasini ta‘minlash bo‘yicha talablarni bajarish har qanday ko‘rinishdagi korrupsiyaga to‘siq bo‘lib, xodim kasbiy-ma‘naviy e‘tiqodini mustahkam bo‘lishidan dalolat beradi.

Ichki ishlar organlari xodimlari korrupsiyaga qarshi kurash olib borishi sababli alohida shaxslar tomonidan ularni korrupsiya domiga tortishga urinishlarni bartaraf etish bo‘yicha zarur bilim, malaka va ko‘nikmalardan unumli foydalanish zarurati yuzaga keladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

– xodim tomonidan huquqiy normalarning mazmun-mohiyatini hamda huquq-tartibot organlari xodimlarining hayoti va kasbiy faoliyatida axloqning ahamiyatini chuqur anglash;

– vijdonlilik, poklik, o‘ziga nisbatan yuqori talabchanlik, doimiy ravishda o‘zini o‘zi kamol toptirishga intilish;

– qasamyodiga sodiq bo‘lish hamda kasb madaniyatiga rioya qilish, o‘z xizmat vazifalarini bajarishda mas‘uliyat, kasbga muhabbat, halollik kabi sifatlarni shakllantirish;

– jamoada sog‘lom axloqiy-ruhiy muhitni, hamkasblar orasida o‘zaro ijobiy munosabatlarni yaratish;

– har qanday ko‘rinishdagi kasbiy buzilish ko‘rinishlari, jumladan manmanlik, kibru havo, fuqarolarga adolatsiz munosabatda bo‘lish, qo‘pollik, dag‘allik, xizmat mavqeini suiiste‘mol qilish kabi salbiy holatlarga yo‘l qo‘ymaslik.

Korrupsiyaga qarshi kurash asoslari xodimning ilk faoliyati bosqichlarida shakllanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiya-sida amalga oshirilayotgan o‘quv-tarbiya jarayoni tinglovchi-kursantlarining korrupsiyaga qarshi kurashish ko‘nikmalarini shakllantirish elementlarni qamrab oladi. Ikki yildan buyon o‘qitilayotgan «Yuksak ma’naviyat va qonun ustuvorligi asosida yashash, el-yurtga sadoqat, adolat, halollik va jasorat fazilatlarini va muomala madaniyatini kamol toptirish» maxsus kursi ana shu maqsadni ko‘zda tutadi.

Halollik davlat xizmatchilari o‘z kasbiy vazifalarini bajarishlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yot shaxslar yoki tashkilotlar oldida o‘zlarini moliyaviy yoki boshqa tomonidan tobe yoxud mute holatga qo‘ymasliklarini talab etadi. Aynan halollik korrupsiyadan tiyilishning asosiy omilidir.

Huquqni muhofaza qilish organlarida halollik fazilatlarini shakllantirish davlat talabidir.

«Halol» – arabcha so‘z bo‘lib, ruxsat etilgan, yo‘l qo‘yilgan, qonuniy, asosli, to‘g‘ri, vijdonli odam ma’nosida ham, shariat hukmiga muvofiq esa, ichsa, foydalansa bo‘ladigan; harom emas degan mazmunga ham ega.

«Halollik» kishining o‘ziga qarashli, o‘z mehnati bilan, peshona teri to‘kib topilgan, xiyonat, g‘irromlik kabilardan xoli demakdir. Shuningdek, g‘irromlikka o‘rganmagan, qing‘ir yo‘lga bormaydigan, birovni aldamaydigan, to‘g‘ri, sofdil inson fazilatidir.

Halollik – bu insonlar uchun ruxsat qilingan yaxshi, ijobiy ishlar, xatti-harakatlar majmuidir, mehnat evaziga topilgan narsalar, shuningdek pok va toza oziq-ovqatlar sirasidir. Halollikning yanada kengroq ma’nodagi jihatlari bu turmushdagi halollik, o‘zaro muomala-munosabatdagi halollik, jamoa orasidagi halollik, savdo-sotiqdagi halollik, do‘stlar o‘rtasidagi halollik va shu kabilardir. Yuragi, qalbi pok va toza, halol yo‘ldan yurgan insonlar hamisha xotirjam bo‘ladi, ko‘ngli ravshan, doimo sihat-salomat yuradi.

7-MAVZU. KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING O‘RNI HAMDA BOSHQA DAVLAT ORGANLARI VA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIGI

«Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining hamkorlik» tushunchasi, turlar va o‘zigaxos xususiyatlari

«Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining hamkorlik» tushunchasini aniqlab olishdan oldin biz albatta korrupsiyaga qarshi kurashishda hamkorlik tushunchasini anglab olishimiz kerak.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda hamkorlik – ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlarning qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlariga asoslanib, o‘zaro kelishilgan holda faoliyatning shakl va usullari, xizmat vakolatlaridan samarali foydalanishi bo‘lib, bunda ikki yoki undan ortiq xizmat, ya’ni boshqaruvning bir-biriga bo‘ysunmagan alohida ishtirokchilari o‘z harakatlarini o‘zaro kelishib bajarishidir.

O‘zaro hamkorlikning maqsadi boshqaruv tizimi oldida turgan umumiy vazifalarini hal etishda kuch va vositalarning to‘g‘ri taqsimlanishini anglatadi.

Shuning uchun, korrupsiyaga qarshi kurashishda hamkorlikni uchta turga ajartish mumkin, bular, ichki, tashqi hamda halqaro hamkorlikdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda ichki hamkorlik – deb korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining birgalikdagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda, muayyan vaqt va joyda amalga oshiriladigan, usul va vositalarga ega qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar yig‘indisi. (misol uchun, ichki ishlar organlarining davlat xavfsizlik xizmati organlari bilan hamkorligi).

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda tashqi hamkorlik – deb ushbu korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining boshqa davlat organlari hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning birgalikdagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda, muayyan vaqt va joyda amalga

oshiriladigan, usul va vositalarga ega qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar yig'indisi. (misol uchun, Ichki ishlar organlarining «Yoshlar ittifoqi» bilan hamkorligi).

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda halqaror hamkorlik – deb O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari chet davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuborish va ularning so'rovlariga javob berish hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida olingan mol-mulkni O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq qaytarish choralari ko'rishdan iboratdir.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining hamkorlik – ichki ishlar organlarinin sohaviy xizmatlari xodimlarining o'zaro, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari bilan hamda boshqa davlat organlari va jamoat tuzilmalari bilan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan, muayyan vaqt va joyda amalga oshiriladigan, usul va vositalarga ega qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar yig'indisi.

Shundan kelib chiqib, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining hamkorligi ham uchta turga bo'linadi – ichki, tashqi hamda halqaro hamkorlikka.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining ichki hamkorlik deb ichki ishlar organlarinin sohaviy xizmatlari xodimlarining o'zaro korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan, muayyan vaqt va joyda amalga oshiriladigan, usul va vositalarga ega IIVning buyrug'i bilan tartibga solinadigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar yig'indisi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining tashqi hamkorlik deb ushbu korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari, boshqa davlat organlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning birgalikdagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga qaratilgan, muayyan vaqt va joyda amalga oshiriladigan, usul va vositalarga ega qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar yig'indisi. (misol uchun, ichki ishlar organlarining «Yoshlar ittifoqi» bilan hamkorligi).

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining ichki, ham tashqi hamkorlikni samarali tashkil etish ko‘p jihatdan ichki ishlar organlarining sohaviy xizmat xodimlarining o‘zlariga bog‘liq. Qolaversa, korrupsiyaga qarshi kurashishga kompleks yondashish prinsipidan kelib chiqib hamkorlikni yo‘lga qo‘yish korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining faoliyatini qamrab oladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining hamkorligining turli shakllari mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishda ikkiga: o‘zaro axborot almashish hamda faoliyatga doir muayyan chora-tadbirlarni hamkorlikda rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarini umumlashtirish, muayyan vazifalarni hal qilishda o‘zaro yordam berish va qo‘llab-quvvatlashda namoyon bo‘ladigan amaliy hamkorlikka ajratish mumkin.

O‘zaro axborot almashish hamkorlikning eng ko‘p tarqalgan shaklidir. Olimlar axborot olish va unga ishlov berishni ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy texnologiyalaridan biri deya ta’kidlaydilar.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining hamkorligi quyidagi prinsiplar asosida tashkil etiladi:

- Konstitutsiya va qonun ustuvorligi;
- oldindan ishlab chiqilgan va kelishilgan reja asosida o‘tkazilishi;
- quyi organlarning yuqori organlarga bo‘ysunishi;
- belgilangan vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;
- har qanday masalalarning uyushqoqlik va tezkorlik bilan hal etilishi.

Hamkorlikka kirishuvchi tarkibiy tuzilmalarning uyg‘unligini ta’minlash, hamkorlik uchun jalb etilgan kuch va vositalarning mobilligi – keng ko‘lamli hamkorlikni samarali tashkil etishning garovi.

Keng ko‘lamli hamkorlikning asosiy belgilaridan biri uning huquqiy tartibga solinganligidir. Hamkorlikning huquqiy tartibga solinganligi uni tashkil etish tartibini mustahkamlaydi, hamkorlikka kirishuvchi har bir ishtirokchining mas’uliyatini oshiradi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari bilan hamkorligi

Ichki ishlar organlari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar

bilan hamkorlik qiladi hamda aniqlangan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar to'g'risidagi axborotni almashishni, shu jumladan elektron shaklda almashishni, shuningdek boshqa axborotni almashishni amalga oshiradi.

Shuningdek, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish, ularni fosh etishda, jinoyat ishlarini tergov qilishda, jinoyatchilarni qidirishda, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning profilaktikasida ichki ishlar organlariga o'z vakolatlari doirasida ko'maklashishi shart.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari xodimlarining o'zaro hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari, boshqa davlat organlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolar bilan hamkorligini samarali tashkil etish, birinchidan, ushbu hamkorlikning huquqiy tartibga solinganligiga; ikkinchidan, o'zaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari, usul va shakllarining, kuch va vositalarining aniq belgilab olinganligi, shuningdek hamkorlikning funksional vakolatlari doirasi bilan aniq chegaralanganiga; uchinchidan, hamkorlikning muhim sharti bo'lgan axborot muhitining yaratilganligiga; to'rtinchidan, hamkorlikning birgalikda rejalashtirilishi, rejalarning amaldagi ijrosi samarali ta'minlanishi va ish natijalarining birgalikda tahlil qilib borilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining hamkorlikka quyidagi jihatlar xos:

- birgalikdagi faoliyatning sub'ekt, ob'ekt va predmeti, umumiy maqsad, vazifa va yo'nalishlari mavjudligi;
- hamjihatlik, o'zaro yordam ko'rsatish va o'zaro qo'llab-quvvatlashga asoslanganligi;
- ijobiy natijalarga erishish uchun intilish;
- hamkorlikning mukammal (optimal), har ikki tomon uchun maqbul shakl va usullarining qo'llanishi;
- axborot ta'minoti va tahlilga egaligi;
- ishtirokchilarning hamkorlikni tashkil etish uchun mas'ulligi va birgalikdagi faoliyatning baholab borilishi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari:

– korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

– korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruvni, dastlabki tergovni, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

– korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi;

– korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil qilishni amalga oshiradi;

– jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralari ko‘radi;

– korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishda ishtirok etadi;

– aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

– korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta‘minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

– korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

– korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari:

– korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

– korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi;

– korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi hamda tahlil qiladi, davlat xavfsizligi uchun tahdidlarni baholashni amalga oshiradi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

– jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

– korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta‘minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

– korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

– korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari:

• korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

• korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi;

• aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatni amalga oshiradi hamda muvofiqlashtiradi;

• ta‘lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta‘lim va tarbiyaga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

• normativ-huquqiy hujjatlardagi hamda ularning loyihalaridagi korrupsiya uchun shart-sharoitlar yaratadigan qoidalar va normalarni aniqlash maqsadida ushbu hujjatlar va loyihalarning tahlilini amalga oshiradi;

• korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘radi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq jinoyatlar va korrupsiya bilan bog'liq boshqa jinoyatlar bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruvni amalga oshiradi;

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishning ehtimol tutilgan yo'llari va mexanizmlarini aniqlash uchun pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarning monitoringini tashkil etadi hamda o'tkazadi;

- jinoiy ta'qib etishni tashkil qilish va huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini ko'rish uchun tegishli davlat organlarini korrupsiyaga oid aniqlangan huquqbuzarliklar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qiladi;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo'yilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar bilan hamkorligi

Uyushgan jinoiy tuzilmalar davlat amaldorlarining korrupsiya aloqalaridan turli jamiyatlarda turli xil darajada foydalanadilar. Ko'pchilik mutaxassislar jamiyatda korrupsiya-ning asosan ikkita, ya'ni yuqori va quyi turi borligini ko'rsatadilar. Yuqori korrupsiya davlat hokimiyatining

oliy organlarida bo‘lib, asosan u yoki bu qarorni qabul qilish bilan bog‘liq holda, pastki korrupsiya esa fuqarolar va yuridik shaxslarning o‘z muammolarini hal qilish uchun bevosita mahalliy hokimiyat organlariga murojaat qilishlari bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, yuqori korrupsiya hamma davlatlarda mavjud bo‘lib, unga qarshi doimo kurashib kelinadi.

Hozirgi kunda korrupsiya aloqalariga ega bo‘lgan uyushgan jinoiy tuzilmalar, ayniqsa uning xalqaro aloqalarga ega bo‘lgan hamda xalqaro miqyosda faoliyat ko‘rsatayotgan tuzilmalari O‘zbekistonning milliy xavfsizligiga tajovuz qiluvchi eng xavfli va jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalari bilan uzviy bo‘lgan nihoyatda xavfli va murakkab hodisalardir. «Shuni unutmaslik kerakki, tamagirlik, to‘rachilik, poraxo‘rlik, kibr-havo, korrupsiya nihoyatda yuqumli va xavfli kasallikdir. O‘z vaqtida uning oldi olinmasa, bu maraz butun jamiyat tanasiga yoyilishi va uni halok qilishi mumkin. Bu illat, avvalo, shu kasalga muhtalo bo‘lgan odamning o‘zini eb ishdan chiqaradi. Uning iymonini, oxiratinini xonavayron qiladi. So‘ngra, boshqa insonlarni, asta-sekin butun jamiyatni emirishga o‘tadi».

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi dolzarb vazifalarning ijrosini tizimli va samarali ravishda bajarilishini ta‘minlash taqozo etiladi:

– korrupsiya ko‘rinishlarining sabab va sharoitlarini bartaraf etishni, ularni zararsizlantirishni ta‘minlovchi tashkiliy va huquqiy mexanizmlarni shakllantirish;

– korrupsiyaning oldini olish bilan shug‘ullanuvchi davlat organlarini tashkil etish, shakllantirish va faoliyat prinsiplarini mustahkamlash;

– korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va ularni to‘xtatish;

– korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oqibatini bartaraf etish va aybdorlarni jazolash.

Korrupsiyalashgan uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatidan keladigan foydani kamaytirishga qaratilgan choralarga quyidagilarni kiritish mumkin: davlat xizmatchilari uchun mehnatga adolatli haq to‘lash va boshqa ijtimoiy manfaatdorlik tizimini joriy etish; halollikni rag‘batlantirish; korrupsiyaga qarshi qoidalarni buzganlik uchun mansabdanda bo‘lishning majburiylikini yo‘lga qo‘yish; mansab bo‘yicha immunitetni bekor qilish; mansabdorlikka, lavozim bo‘yicha o‘z ishiga imkon berish; nafaqaga chiqish uchun munosib sharoit yaratish va h.k.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

- Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

- Nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Idoralararo komissiya va hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni yoritadi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Korrupsiya kabi nomaqbul holatlarga butunlay barham berish uchun boshqaruv sohasida, avvalambor, samarali ishlaydigan izchil tizim-ni shakllantirish kerak. Va bu tizim shunday ishlashi kerakki, bordiyu biror-bir mansabdor shaxs davlat siyosatida chekinib, qonunga xilof ishlar bilan shug'ullanadigan, o'z manfaatini davlat, xalq manfaatidan ustun qo'yadigan bo'lsa, u kimligi, kimning qarindoshi, qaysi rahbarning og'aynisi ekanidan qat'i nazar, muqarrar ravishda jazosini olishi shart.

Ya'ni bunday jazoning muqarrarligini shu odamdan yuqori lavozimda o'tirganlar emas, balki tizimning o'zi talab etishi zarur.

Bu o'rinda, Fransiya, Angliya va boshqa demokratik davlatlar ma'muriy huquqi namunasi bo'yicha davlat hokimiyati ma'muriyati va fuqarolarning ijtimoiy munosabatlarini tartibiga soladigan, fuqarolarni hokimiyat o'zboshimchaligidan himoya qiladigan ma'muriy huquq tizimini yuzaga keltirish vaqti keldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси // URL: <http://www.lex.uz>.

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // URL: <http://www.lex.uz>.

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-ижроия кодекси // URL: <http://www.lex.uz>.

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси // URL: <http://www.lex.uz>.

Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси // URL: <http://www.lex.uz>.

Ўзбекистон Республикасининг «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги 2017 йил 3 январдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.

Ўзбекистон Республикасининг «Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан химоя қилиш тўғрисида»ги 2017 йил 8 сентябрдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.

Ўзбекистон Республикасининг «Вояга етмаганлар ўртасида назорат-сизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида»ги 2010 йил 29 сентябрдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.

Ўзбекистон Республикасининг «Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиклиги тўғрисида»ги 2014 йил 5 май қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2014. – №19. – 209-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний ва юридик шахсларнинг муурожаатлари тўғрисида»ги 2017 йил 11 сентябрь қонуни // ЎРҚ № 445.

Ўзбекистон Республикасининг «Ички ишлар органлари тўғрисида»ги 2016 йил 16 сентябрь қонуни. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2016. – ЎРҚ-407-сон.

Ўзбекистон Республикасининг «Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида» 2008 йил 17 апрелдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.

Ўзбекистон Республикасининг «Одамнинг иммунитет танқислиги вируси келтириб чиқарадиган касаллик (ОИВ инфекцияси) тарқалишига қарши курашиш тўғрисида» 2013 йил 23 сентябрдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.

Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.

Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т., 2017.

Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. – Т., 2017.

Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т., 2018.

Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови: Ўзбекистон Республикаси

Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза // Постда. – 2016.

Мирзиёев Ш.М. Инсон манфаатларини таъминлаш учун аввало унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, осуда ва фаровон ҳаёти ҳимоя қилинмоғи керак (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 февраль куни ички ишлар органлари фаолияти, тизимда мавжуд муаммо ва камчиликлар, истиқболдаги вазифаларга бағишланган видеоселектор йиғилишидаги маъруза) // Постда. – 2017. – №7.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ички ишлар органи ходимининг ёки унинг яқин қариндошларининг мол-мулкига унинг хизмат мажбуриятларини бажариши билан боғлиқ ҳолда етказилган зарарнинг ўрнини қоплаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 2017 йил 24 апрель қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2017. – №17. – 297-м.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги «Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5005-сонли фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2017. – № 15. – 243-м.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 апрелдаги «Ички ишлар органлари фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-2883-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2017. – № 15. – 247-м.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 мартдаги ПҚ-2833-сон «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори // URL: <http://www.lex.uz>.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги фармони // URL: <http://www.lex.uz>.

Ахроров Б.Д. Мансабдорлик жиноятлари учун жиноий жавобгарлик / Маъсул муҳаррир профессор М.Х.Рустамбоев. – Т., 2007. – Б.268.

Исмаилов И. ва бошқ. Вояга етмаганлар назоратсизлиги ва ҳуқуқбузарликларининг олдини олиш: Ўқув-амалий қўлланма. – Т., 2011.

Исмаилов И. Коррупция ва унга қарши курашнинг асосий йўналишлари // Ҳуқуқ–Право–Law. – 1999. – №3. – Б.40-55.

Исмаилов И. Уюшган ва коррупцион жиноятчиликни ўрганишнинг криминологик жиҳатлари // Ҳуқуқ–Право–Law. – 2004. – №2. – Б.44-46.

Исмаилов И., Мухторов Ж.С., Хўжақулов С.Б. Коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар профилактикаси / Ўқув қўлланма. – Т., 2017.

Коррупцияга қарши курашнинг долзарб масалалари: Илмий мақолалар тўплами / Масъул муҳаррир Ш.Т.Икрамов. – Т., 2015.

Қиличев Ф. Ҳалол терговчини чалғитиб бўлмади // Ҳаёт ва қонун. – 1995. – №4. – Б.32-35.

Қобилов Ш. Р. Коррупция: келиб чиқиш сабаблари ва унга қарши курашнинг жаҳон тажрибаси. – Т., 2011. – Б.81.

Қобилов Ш.Р. Коррупцияга қарши курашиш: иқтисодий, маънавий-маърифий чоралари ва йўллари: Монография. – Т., 2015. – Б.160.

Қобилов Ш.Р., Абдуллажонов Н.Б. Коррупция ва хавфсизлик. – Т., 2006. – Б.55.

Малиновский И.Б. Коррупция и уголовный закон // Российский следователь. –2009. –№11. – С.11-14.

Набиев Т.У. Коррупция таърифи ва унга қарши кураш принциплари // Экстремизм, терроризм, гуруҳий ва уюшган жиноятчиликка қарши кураш муаммолари. – Т.,1999. – Б.101.

Соттиев И.А., Ҳамраев С.И. Коррупция билан боғлиқ жиноятларни ҳуқуқий баҳолаш: Ўқув-амалий қўлланма. – Т., 2008. – Б.51.

Ўлмасов А. Коррупция: кўриниши, шакллари ва турлари. – Постда. – №19. – 2016. – 9 май. – Б.12.

Криминологиянинг долзарб масалалари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари (2014йил 18январь). – Т., 2014. – Б.305.

Интернет сайтлари:

<http://akadmvd.uz> (Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси)

<http://book.uz/> (Электрон адабиётлар кутубхонаси)

<http://eduportal.uz> (Мультимедиа умумтаълим дастурларни ривожлантириш маркази)

<http://lawtheses.com> (Библиотека юридических наук – авторефераты и диссертации по правоведению и юриспруденции)

<http://natlib.uz> (Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси)

<http://press-service.uz/uz> (Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти)

<http://utube.uz/ru> (Utube.uz таълим видеопортали)

<http://uzedu.uz> (Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги)

<http://uzsci.net> (Илмий таълим тармоғи)

<http://wikipedia.org> (Wikipedia очиқ энциклопедияси)

<http://www.connect.uz> (Ўзбекистон умумтаълим портали)

<http://www.google.ru> (Google қидирув тизими)

<http://www.law.edu.ru> («Юридическая Россия» – Федеральный правовой портал)

<http://www.legislationline.org/ru> (Бюро по демократическим институтам и правам человека ОБСЕ)

<http://www.lex.uz> (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси)

<http://www.nuu.uz> (Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети)

<http://www.tsul.uz> (Тошкент давлат юридик университети)

<http://www.tuit.uz> (Тошкент Ахборот технологиялари университети)

<http://www.uz> (Миллий қидирув тизими)

<http://www.uzscience.uz> (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Фан ва технологияларни ривожлантиришни мувофиқлаштириш қўмитаси)

<http://www.xs.uz> (Халқ сўзи газетаси)

<http://www.yandex.ru> (Яндекс қидирув тизими)

<http://www.ziynet.uz> (Ахборот таълим тармоғи)

<http://ziynet.uz> (ZiyoNET таълим портали)

<https://elibrary.ru> (Научная электронная библиотека)

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI.....	3
<i>1-mavzu.</i> Ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish o‘quv kursining predmeti, maqsadi va vazifalari	6
<i>2-mavzu.</i> «Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar» tushunchasi, ijtimoiy salbiy oqibatlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari	17
<i>3-mavzu.</i> Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan sodir etiladigan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar tahlili	33
<i>4-mavzu.</i> Ichki ishlar organlarida korrupsiyaning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar.....	44
<i>5-mavzu.</i> Ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish choralari	54
<i>6-mavzu.</i> Ichki ishlar organlari xodimlarida korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish yo‘llari	71
<i>7-mavzu.</i> Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining o‘rni hamda boshqa davlat organlari va jamoatchilik bilan hamkorligi	81
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	91

ABDURASULOVA Qumriniso Raimqulovna;
yuridik fanlar doktori, professor;
ZAKIROVA Adina Gulyamovna,
yuridik fanlar doktori, professor;
XO‘JAQULOV Siyavush Baxtiyorovich,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori dotsent;
UMIRZAKOV Begzod Ataboevich;
ESHNAZAROV Mexriddin Jo‘raevich;
RAXMANOV Rasul Narzullaevich;
KARSHIEV Gulomjon Sayfullaevich;
UBAYDULLAEV Sherzod Muzaffarovich;
SHERJANOV Jaxongir Komilovich

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA
KORRUPSIYANING OLDINI OLISH VA
XODIMLARDA KORRUPSIYAGA QARSHI
XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISH

Ma‘ruzalar kursi

Muharrir **S. S. Qosimov**
Texnik muharrir **D. R. Djalilov**

Bosishga ruxsat etildi 21. 12. 2018 y. Nashriyot hisob tabag‘i 6,5.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № . Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent shahri, Intizor ko‘chasi, 68